



GLOBAL O‘ZGARISHLAR INSTITUTI RAHBARI BILAN HAMKORLIKNING ASOSIY YO‘NALISHLARI BELGILANDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 10-aprel kuni Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri, Global o‘zgarishlar instituti raisi Toni Blerni qabul qildi.



O‘zbekistonning ushbu nufuzli tuzilma bilan amaliy hamkorligini rivojlantirish masalalari ko‘rib chiqildi.

Toni Bler Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan islohotlarning borishi va ko‘lamini yuksak baholadi, ularni yanada ilgari surish doirasida zarur ekspert-maslahat ko‘magini ko‘rsatishga tayyorligini bildirdi.

Iqtisodiyot tarmoqlariga yirik strategik investorlarni jalb qilish, texnologik modernizatsiya, raqamlashtirish va sun‘iy intellektni joriy etishni jadallashtirish, ustuvor sohalarida qo‘shma dastur va loyihalarni amalga oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar hamkorlikning boshqa asosiy yo‘nalishlari sifatida qayd etildi.

Ta’kidlash joizki, Buyuk Britaniyaning sobiq Bosh vaziri Toni Bler tomonidan 2016-yilda tashkil etilgan institut xalqaro notijorat tashkilot hisoblanadi. U turli mamlakatlarga barqaror va innovatsion rivojlanishning yangi modellari ishlab chiqishda, iqlim o‘zgarishi va boshqa zamonaviy tahdidlarga qarshi kurashishda ko‘maklashadi.

O‘zA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Matbuot xizmati surati.

JAHON BANKI MAMLAKATIMIZ IQTISODIY RIVOJLANISH STRATEGIYASINI QO‘LLAB-QUVVATLAYDI

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Jahon banki guruhining operatsiyalar bo‘yicha boshqaruvchi direktori Anna Byerde boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.

O‘zbekistonning Jahon banki bilan keng ko‘lamli strategik hamkorligini yanada rivojlantirish, eng avvalo, ushbu global moliyaviy institut tomonidan mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar strategiyasini qo‘llab-quvvatlash masalalari ko‘rib chiqildi.

Uchrashuv avvalida Anna Byerde davlatimiz rahbariga Jahon banki prezidenti Ajay Banganing salomi va eng ezgu tilaklarini yetkazdi.

Keyingi yillarda sheriklik munosabatlari yuksak darajaga chiqib, salmoqli natijalar berayotgani katta mamnuniyat bilan qayd etildi.

Bugungi kunda O‘zbekiston bankning eng yirik hamkorlaridan biridir. Loyihalar portfeli 12 milliard dollardan oshdi. Jahon banki iqtisodiyotning ustuvor tarmoqlari va ijtimoiy sohaning barqaror rivojini ta’minlashga qaratilgan islohotlarni amalga oshirishda moliyaviy, konsultativ va texnik ko‘mak ko‘rsatmoqda.

Bank ko‘magida xalqaro moliya

institulari ishtirokidagi loyihalar mexanizmi takomillashtirildi, ularni tayyorlashni tezlashtirish va sifatini oshirish bo‘yicha yangi tartib qabul qilindi.

Kambag‘allikka qarshi kurashish, eng avvalo, turizm sohasida xotin-qizlar va yoshlar uchun ish o‘rinlari yaratish, xususi sektorini va davlat-xususiy sheriklikni rivojlantirish dasturlarini qo‘llab-quvvatlash, davlat korxonalarni transformatsiya qilish va xususiy lashtirish kabi yo‘nalishlar kelgusi amaliy sheriklikning ustuvor yo‘nalishlari sifatida qayd etildi.

Uglerod chiqindilarini qisqartirish, urbanizatsiya va infratuzilmani modernizatsiya qilish, energiya samaradorligini oshirish, investitsiya muhitini yaxshilash, mamlakatimizning JSTga a‘zo bo‘lishiga ko‘maklashish borasidagi hamkorlik rejalarga alohida e’tibor qaratildi.

Yirik mintaqaviy loyihalarni ilgari surish masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

O‘zA

TOSHKENT – PARLAMENTLARARO DIPLOMATIYA MARKAZI

TOSHKENT DEKLARATSIYASI TINCHLIK VA BIRDAMLIK, INSONIYAT FAROVONLIGIGA XIZMAT QILADI



Poytaxtimizda qariyb bir hafta davom etgan Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi parlamentlararo muloqot, o‘zaro hamkorlik va tinchlikni mustahkamlash yo‘lida turli mamlakatlar parlamenti a‘zolarini birlashtirgani, global muammoli masalalarga yechim izlangani bilan yodda qoldi. Tadbirda 100 dan ortiq parlament spikerlari va spiker o‘rinbosarlari ishtirok etgani geosiyosiy qarama-qarshiliklar kuchaygan bir paytda parlament diplomatiyasi an’anaviy xalqaro munosabatlarda muhim o‘rin tutishini ko‘rsatdi.

Assambleya doirasida, shuningdek, gender tenglik, aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash, fuqarolar salomatligini saqlash, ekologiya va iqlim o‘zgarishi oqibatlarini yumshatish kabi masalalar muhokama qilindi. Mazkur nufuzli anjuman nafaqat tarixiy sanani nishonlash, balki parlamentlararo hamkorlikning yangi davrini boshlab bergani bilan ahamiyatlidir.

Assambleya yakunida global parlament hamjamiyatining ijtimoiy taraqqiyot va adolat yo‘lidagi harakatlariga bag‘ishlangan muhim hujjat —

Toshkent deklaratsiyasi qabul qilindi. Unda Prezidentimiz Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasidagi nutqida ilgari surgan tashabbuslar qamrab olingan. Shuningdek, hujjatda ijtimoiy taraqqiyot borasidagi sa’y-harakatlarni yangilab borishga qaratilgan ishlar, mavjud va yuzaga kelayotgan masalalarga birgalikda yechim topish zarurati o‘z ifodasini topdi.

Nufuzli anjuman ishtirokchilaridan ba’zilarining tadbir haqidagi taassurotlari va fikr-mulohazalari bilan qiziqdik.

Davomi 3-beta

XO‘JAND SAMMITI: SIYOSIY BARQARORLIK YO‘LIDAGI TARIXIY UCHRASHUV

Markaziy Osiyo mintaqasi geografik jihatdan muhim strategik hududda joylashgan bo‘lib, jahonning yirik davlatlari tashqi siyosatida geosiyosiy va geoiktisodiy ahamiyatga ega. Hududda chuqur o‘ylangan tashqi siyosat yuritish mintaqada xavfsizlik va barqaror rivojlanishni ta’minlab, strategik geosiyosiy muvozanatni saqlaydi. Bunday siyosat, albatta, juda katta mas’uliyatni, diplomatik mahoratni va kuchli siyosiy irodani talab qiladi.

Prezidentimiz yuritayotgan faol yaxshi qo‘shnchilik siyosati tufayli so‘nggi yillarda Markaziy Osiyoda sog‘lom siyosiy iqlim va do‘stona muhit vujudga keldi, bu mintaqada ko‘p qirrali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni har tomonlama kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Davomi 2-beta

ORTGA QAYTMAS DEMOKRATIK ISLOHOTLAR VA PRAGMATIK TASHQI SIYOSAT

Mamlakatimizda xalqaro huquqning umume’tirof etilgan tamoyil va me’yorlariga tayanib yuritilayotgan tashqi siyosat zamirida xalqimiz maqsad qilgan demokratiya, erkinlik va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik g‘oyalari mujassam. Keyingi yillarda O‘zbekiston tashqi siyosiy faoliyatida kuzatilgan faollik nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaqamiz davlatlari va xalqlari uchun manfaatli bo‘lmoqda.

Masalan, vatanimizning yangi tahrirdagi tashqi siyosiy konsepsiyasida Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan o‘zaro do‘stona,



yaxshi qo‘shnchilik munosabatlari shakllantirish ustuvor yo‘nalish sifatida belgilangani va ayni yo‘nalishda qilingan ishlar tufayli qo‘shni davlatlar bilan

o‘zaro iliq munosabatlar yo‘lga qo‘yildi. Chegaralar ochilib, azaliy qardoshlik aloqalari, bordi-keldilar tiklandi.

Davomi 2-beta



Millat fidoyilari

MANGU HILPIROVCHI TUG‘
(Xudoybergan Devonoo hayotiga ehizgilar)

UNESConing Parijdagi bosh qarorgohida Markaziy Osiyodagi ilk professional fotosuratchi va kinooperator Xudoybergan Devonovga bag‘ishlangan ko‘rgazma bo‘lib o‘tdi. Hayratlanarli zakiylik va nozik badiiy did sahibi bo‘lgan Devonov nafaqat insonlar va voqealar, balki zamon ruhini ham tasmlarga muhrlab, o‘z davrining chinakam solnomachisiga aylandi. Uning sezgir nigohi va kasbiga teran ishtiyiqi sharofati bilan bugun biz jonli tarixga nisbatan daxldorlik hissini tuya olamiz.

O‘zbekiston Madaniyat va san’atni rivojlantirish jamg‘armasi tomonidan tashkil etilgan mazkur ko‘rgazmada butun bir davrning tasviriy solnomasiga aylangan 34 ta betakror fotosurat namoyish etildi.

PANOR BOBO SHOGIRDI

O‘rta Osiyo tabiati, shonli tarixi, madaniyati va qadriyatlarini o‘rganish maqsadida ilk bor fotoapparat bilan kelgan kishilar yevropalik sayyoh va o‘lkashunoslar bo‘lib, ulardan keyin hunarmandlar, tadbirkorlar tashrif

buyura boshlagan. Shulardan biri Anton Murenko bo‘lib, u 1858-yilda polkovnik Ignatyevning harbiy-diplomatik safari vaqtida ko‘hna marvarid — Xiva ko‘rinishlarini suratga olgan. Uning izdoshlaridan biri Stanislav Nikolayev 1837-yilda Toshkentda ilk fotografiya atelyesiga tamal toshini qo‘ygan. Parijlik foto ustasi Pol Nadar esa 1890-yilda Orol dengizidan Pomir tog‘lariga qadar cho‘zilgan, ko‘plab tamaddunlar qaynovida toblangan yurt manzaralarini o‘z kamerasiga muhrlagan.

Davomi 5-beta

ORTGA QAYTMAS DEMOKRATIK ISLOHOTLAR VA PRAGMATIK TASHQI SIYOSAT

Boshlanishi 1-betda

Munosabat

2023-yilda umumxalq referendumi orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 18-moddasida “O‘zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko‘p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi.

O‘zbekiston Respublikasi davlatning, xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo‘stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin”, deb mustahkamlab qo‘yildi. Umuman olganda, davlatimiz rahbarining

qat’iy siyosiy irodasi bilan tashqi siyosatimizga bugunning talablariga mos tatbiq etilgan yangilanishlar O‘zbekistonning dunyoga ochildishini ta’minladi. O‘z navbatida, dunyo ham bizga ochildi.

Joriy yil 3-9-aprel kunlari O‘zbekiston 3 ta yirik xalqaro tadbirga, ta’bir joiz bo‘lsa, dunyoning buguni va ertasi muhokama qilingan nufuzli anjumanlarga mezbonlik qilgani ham fikrimizni tasdiqlaydi.

Jumladan, Samarqandda “Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti va Samarqand xalqaro iqlim forumi, Toshkent



Абдуманноб РАХИМОВ,
Конституционный суд судьяси,
юридик фанлар номзоди

shahrida Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasi o‘tkazilgani dunyo hamjamiyatining mamlakatimizdagi keng ko‘lamli demokratik islohotlarga munosib bahosi, ishonchi va e’tirofi desak, aslo mubolag‘a bo‘lmaydi.

“Markaziy Osiyo — Yevropa Ittifoqi” birinchi sammiti ishtirokchilari, shuningdek, Yevropaning yetakchi institutlari va moliya tashkilotlari rahbarlari Markaziy Osiyoning umumiy pozitsiyaga egaligi, ishonchli va mas’uliyati sherik sifatida keng ko‘lamli hamkorlikka tayyor ekaniga amin bo‘lgan bo‘lsa, Parlamentlararo Ittifoq Assambleyasi ishtirokchilari Toshkent parlament diplomatiyasining poytaxtiga aylanганиni e’tirof etdi. Bu ham yuqoridagi fikrimizning yorqin tasdig‘idir.

Davlatimiz rahbarining xalqaro anjumanlardagi nutqi nafaqat ishtirokchilar, balki dunyo jamoatchiligida katta qiziqish uyg‘otdi. Ayniqsa, O‘zbekiston yetakchisining Markaziy Osiyo davlatlarining dunyo hamjamiyatida tutgan o‘rni va birdamligi borasidagi asosiy yo‘nalishlar xususida



bildirgan fikr va takliflari mintaqadagi ko‘p millionli qardosh xalqlar tomonidan ko‘tarinki ruhda kutib olindi.

Xalqaro anjumanlar muhokamasiga kiritilgan masalalarning ko‘lami va xalqaro munosabatlardagi ahamiyati juda keng. Prezidentimizning dunyo hamjamiyati oldida turgan, konseptual yechimini topishi kerak bo‘lgan masalalar xususidagi nutqiga e’tibor qaratsak, unda ilgari surilgan asosiy g‘oyalar, taklif va fikr-mulohazalar dunyoning turli mintaqalarida davom etayotgan nizolarga yechim bo‘lishi mumkinligi bilan qimmatlidir.

Shu o‘rinda davlatimiz rahbarining Markaziy Osiyo davlatlarining dunyo hamjamiyatidagi o‘rmini mustahkamlash va taraqqiy topgan mamlakatlar bilan manfaatli hamkorlik qilishi borasida ilgari surgan

tashabbusiga to‘xtalib o‘tsak. Albatta, mintaqamiz xalqlarining birligi, o‘zaro manfaatli hamkorligi, yaxshi qo‘shnichiligi o‘ld g‘oyalar aslo tasodif emas.

Markaziy Osiyo davlatlarining turli masalalarda umumiy pozitsiyada bo‘lishi, o‘zaro ishonch va hamkorlik asosida azaliy qardoshlik rishtalarini mahkam tutib, boshqa mintaqalar bilan teng munosabatlarga kirishishi Prezident Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari sifatida faoliyat boshlagan ilk pallalardan boshlandi. Yodingizda bo‘lsa, davlatimiz rahbari tashabbusi va BMT qo‘llab-quvvatlovi bilan 2017-yili Samarqand shahrida Markaziy Osiyo mintaqasida xavfsizlik va barqaror rivojlanish masalalariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiya bo‘lib o‘tgandi. Aynan o‘sha yig‘ilishda mintaqa davlatlari o‘rtasida necha ming yildan buyon davom etib kelgan o‘zaro yaxshi qo‘shnichilikning yangi davriga asos solindi. Xalqaro konferensiyaning nechog‘liq muhim va dolzarbligi uning “Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo‘lidagi hamkorlik” deb nomlanishida ham namoyon edi.

Buni bejiz eslamadik. O‘shanda Prezidentimiz “Davlatlarimiz aynan yaxshi qo‘shnichilik va o‘zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalarda, xavfsizlik va barqarorlik masalalarida o‘z salohiyatini yanada samarali amalga oshira oladi.

Ishonchim komil, bundan barcha — Markaziy Osiyo davlatlari ham, boshqa mamlakatlar ham birdek manfaat ko‘radi.

Bizning bosh maqsadimiz — umumiy sa’y-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak

taraqqiy etgan mintaqaga aylantirishdan iborat”, degan edi.

Samarqand va Toshkentdagi xalqaro anjumanlarda xalqaro hamjamiyat vakillari tomonidan e’tirof etilgan O‘zbekiston va Markaziy Osiyodagi o‘zgarishlar, qo‘lga kiritilgan ulkan marralar aynan Prezidentimizning bundan roppa-rosa 8-yil avval ilgari surgan ushbu tashabbuslari, qat’iy ishonchi va albatta, qo‘shni davlatlar bilan hamkorlikdagi samarali mehnati natijasi bo‘ldi.

“Darhaqiqat, O‘zbekistonning tashqi siyosatida “Markaziy Osiyo — bosh ustuvor yo‘nalish” tamoyilining tatbiq etilishi mintaqamizda mutlaqo yangi siyosiy muhit vujudga kelishi, o‘zaro ishonch va yaxshi qo‘shnichilik asosidagi aloqalar yo‘lga qo‘yilishiga zamin yaratdi. Butun mintaqaning dunyo hamjamiyatidagi mavqeini oshirdi.

Xalqaro anjumanlar va ularda imzolangan tarixiy ahamiyatga molik hujjatlar xususida hali ko‘p gapiriladi, yoziladi. Aytmoqchi bo‘lganimiz shuki, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz asosida yuritilayotgan tashqi siyosat samarali kechmoqda va xalqaro jamoatchilik tomonidan baralla e’tirof etilyapti.

Masalaning yana bir muhim jihati bor: birlashgan hamisha yutadi, xuddi Markaziy Osiyo mintaqasi singari. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, “Mintaq mamlakatlari o‘rtasida ishonch va yaxshi qo‘shnichilik mustahkamlanmoqda, keng ko‘lamli hamkorlik va kooperatsiya aloqalari kengaymoqda. Bundan yetti-sakkiz yil avval buning uchun hatto sharoit ham yo‘q edi. Ba’zi mamlakatlar o‘rtasidagi chegaralar yopiq edi. Na savdo, na tranzit, na biznes, hech qanday gumanitar almashuvlar yo‘q edi. Munosabalar shunchaki muzlatib qo‘yilgandi. O‘shanda hech kim yaqin kelajakda biz Yevropa yetakchilari bilan muzokaralarda mintaqamizni birgalikda namoyon etishimizni tasavvur ham qila olmas edi”.

Kun mavzusi

NAJOT ILMDA, hamjihatlik va birodarlikda

Bugun odam dunyoning gultoji, tafakkurga ega yagona xilqat sifatida sinovli tarix oldida turibdi. U jahonni, odamiyligni asrab qola oladimi?! Dunyo yagona, koinot bir butun ekanini anglashimiz har doimgidan ham muhim va dolzarb. Shunday pallada shoir Sadriddin Salim Buxoriyning “Kim neni izlasa, topgay begumon, Hikmat izlaganga hikmatdir dunyo” satrlari ko‘nglimizdan o‘tadi. Axir ona zaminimiz turli sinovlar ichida turgan kunlarda Markaziy Osiyo xalqlari tinchlik uchun ovoz berayotgani, o‘zaro hamjihatlik, yaxshi qo‘shnichilik tamoyillarini mustahkamlayotgani, mintaqaviy va global masalalar bo‘yicha yakdil fikrda ekani — hammamizning saodatimiz.

Bu jarayonda Prezidentimizning mintaqada tinchlik, o‘zaro hamfirklik, bog‘liqlikni kuchaytirish borasida ilgari surayotgan hayotiy tashabbuslari, tinimsiz sa’y-harakatlari hal qiluvchi ahamiyatga ega, albatta. Faqat va faqat birdamlik, yaxshi qo‘shnichilik, birodarlik, pirovardida mintaqaviy farovonlikka xizmat qilayotgan tarixiy birlashuvimiz, bir-biridan kuch-quvvat olayotgan do‘stligimiz, bordi-keldimiz abadiy bo‘lsin.

Ayni damda bu o‘zbek eli, ko‘pmillatli O‘zbekiston xalqining istak-irodasi hamdir. Shunday tarixiy voqealardan yana biri 31-mart kuni sodir bo‘ldi va barchamizning ko‘nglimizni tog‘dek ko‘tardi. O‘zbek, tojik va qirg‘iz elining birdamligi, go‘zal qo‘shnichiligini ifodalovchi Xo‘janddagi tarixiy uchrashuv hali-hamon dunyo hamjamiyati e’tirofida.

Uch xalqning dili, urf-odatlari, fe’l-atvori, yashash tarzi bir, Navro‘z esa aynan shu birlikni ifodalovchi bayramdir. Osmonda o‘zbek, tojik, qirg‘iz Prezidentlarining surati dronlar yordamida tasvirlanar ekan, bu uch millatning bir-biriga mehr-oqibati timsoli sifatida aks etdi. Shu asnoda dronlar, umuman, texnika taraqqiyoti urush uchun emas, birdamlik, ilm rivoji uchun zarur ekanini ham anglatdi, nazariyamizda.

Prezidentimiz bejiz “Najot ilmdadir”, deb takror-takror aytmaypti.



Hafiza ORTIQOVA,
Buxoro viloyati hokimi
o‘rinbosari — viloyat oila
va xotin-qizlar boshqarmasi
boshlig‘i, biologiya fanlari
doktori, professor

Mamlakatimizning tub siyosati tinchlik, birdamlik, yaxshi qo‘shnichilikka asoslangan. Davlatimiz rahbarining Tojikistonga tashrifi nafaqat siyosiy-iqtisodiy, balki insonparvarlik asosidagi hamkorlikning yangi bosqichini boshlab berdi.

Bu yo‘lda onalarning qo‘lni qo‘lga berishi, birdam harakati alohida ahamiyat kasb etadi. Zero, tashrif doirasida

Xo‘jandda bo‘lib o‘tgan “Navro‘z — ayollar birdamligi bayrami” forumida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri o‘rinbosari — Oila va xotin-qizlar ko‘mitasi raisi Z.Mahkamova boshchiligidagi delegatsiya ishtirok etdi. Ona — tinchlik tarafdori, birdamlik uchun eng ko‘p jon kuyitadigan ulug‘ zot va shu birdamlikni yuzaga keltirishdagi muhim halqalardan birdir. Shu bois, bu delegatsiya a’zolari tojik onalari, ayol-qizlari bilan uchrashuvlar o‘tkazdi, dildan suhbatlashdi.

Milliy kiyimlarimizdagi go‘zallik, ramziy ifodalar, ranglar uyg‘unligi boy tariximiz, o‘xshash madaniyatimizning o‘ziga xos namoyoni sifatida har birimizning ko‘zimizni quvontirdi, albatta. Bu forum O‘zbekiston va Tojikiston xotin-qizlar hamkorligi yo‘lida yangi, ayni damda muhim sahifa ochdi. “Arbob” saroyida Tojikiston xalqi tarixi, madaniyati, urf-odatlari bilan bog‘liq sahifalarni nazardan o‘tkazish jarayonida delegatsiyamiz yana bir karra tariximiz o‘zaro chambarchas bog‘liq ekani, qadriyatlarimiz uyg‘unligini e’tirof etdi.

Forum — asrlar davomida xalqlarimiz o‘rtasida shakllangan do‘stlik, qardoshlik hamda birdamlik an‘analarning mantiqiy davomi. Bosh vazir o‘rinbosari o‘z chiqishida aynan shu qadriyatlarga alohida urg‘u berdi. Ayniqsa, xotin-qizlarning ta’lim olish imkoniyati, tadbirkorligini rivojlantirish, ularni har tomonlama ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha qo‘lga kiritilgan yutuqlarimizni o‘rinli e’tirof etib, ayollar salohiyatini rivojlantirish, ma’naviy qadriyatlarini mustahkamlash, ekofaollikni oshirishda birgalikda harakat qilish, o‘zaro tajriba almashish va ayollarning ovozi mintaqaviy hamda global darajaga olib chiqish zarurligini ta’kidladi.

Albatta, o‘zaro tajriba almashish, qarashlarni uyg‘unlashtirish, sa’y-harakatlarni birlashtirish barchamiz uchun manfaatli bo‘ladi. Umuman olganda, bunday muloqotlar biz — ayol-qizlarni yanada jo‘shqin mehnatga, ijodga, ilmiy izlanishlarga chorlaydi.

Nuqtayi nazar

Boshlanishi 1-betda

Ayniqsa, so‘nggi yillarda dunyo ekspert-tahlil hamjamiyati vakillari tomonidan mintaqamizga qiziqish sezilarli tarzda oshdi. Ular bugungi Markaziy Osiyo, xususan, O‘zbekiston siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotining o‘ziga xos xususiyatlarini chuqurroq o‘rganishga intilmoqda. Ta’kidlash joizki, mintaq davlatlari o‘rtasidagi ilmiy aloqalar faollashmoqda. Uning asosida mintaqaviy iqtisodiyot va turli sohalarda davlatlararo munosabatlarning istiqbollarini birgalikda o‘rganish, dolzarb takliflar ishlab chiqish zarurati yotibdi.

Shavkat Mirziyoyev davlat rahbari lavozimiga kirishganidan so‘ng Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan yaqin qo‘shnichilik va o‘zaro



Dilmurod NABIYEV,
iqtsidodiyot fanlari doktori,
professor

XO‘JAND SAMMITI: SIYOSIY BARQARORLIK YO‘LIDAGI TARIXIY UCHRASHUV

manfaatli munosabatlarni yo‘lga qo‘yish masalasi davlat tashqi siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Prezidentimiz mintaqadagi ko‘plab hududiy nizolar, suv va energiya bilan bog‘liq muammolar, transport-logistika masalalarini muvaffaqiyatli va o‘zaro manfaatli hal qilishga intilishlarning bosh ilhomchisi bo‘ldi. Uning bu boradagi tashabbuskorligi Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va hurmatga asoslangan munosabatlarni tendensiya darajasiga ko‘tardi. Oqibat o‘laroq mintaqada qator strategik yo‘nalishlarda faol o‘zaro hamkorlik avj oldi. Mintaq mamlakatlari o‘zaro savdo aylanmasi va iqtisodiy integratsiyani kengaytirishga intila boshladi. Shu maqsadda bojxona to‘siqlarini kamaytirish, erkin savdo hududlarini rivojlantirish, qo‘shma korxonalar va iqtisodiy klasterlar tashkil etish kabi choralar ko‘rildi.

Shuningdek, transport yo‘laklarini rivojlantirish, suv-energetika resurslaridan oqilona foydalanish, ta’lim va fan sohasidagi aloqalarni jadallashtirish, ekologik muammolarni hal qilish, mintaqaviy tahdidlarga qarshi birgalikda kurashish borasida ham

hamjihatlikda faoliyat yuritish boshlandi. Ushbu yo‘nalishlardagi hamkorlik mintaqaning barqarorligi va iqtisodiy rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu nuqtayi nazardan yondashganda, O‘zbekiston, Tojikiston va Qirg‘iziston Prezidentlarining Xo‘janddagi uch tomonlama uchrashuvini, mazkur mamlakatlar chegaralarining tutash nuqtasi to‘g‘risidagi tarixiy shartnoma imzolashini o‘zaro hamkorlikni faollashtirish borasidagi sa’y-harakatlarning mantiqiy davomi sifatida baholamoq kerak.

Shartnoma imzolashining strategik ahamiyati beqiyos.

Birinchidan, Markaziy Osiyoda chegara masalalarining tinch va muzokaralar yo‘li bilan hal etilishi davlatlar o‘rtasidagi o‘zaro ishonch va hamkorlikni yanada mustahkamlaydi. Bu kelishuv mintaqaning siyosiy barqarorligiga ijobiy ta’sir ko‘rsatib, kelgusida chegaraviy nizolarning oldini olishga xizmat qiladi. Chegara muammolari hal qilinishi mintaq davlatlari o‘rtasidagi diplomatik munosabatlarni kuchaytirish bilan birga tashqi siyosatda ham yanada samarali hamkorlik uchun zamin yaratadi.

mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashda muhim qadamlardan biri bo‘lishi mumkin.

Shartnomaning strategik ahamiyatlaridan yana biri shundaki, u Markaziy Osiyo davlatlarining integratsiya jarayonlariga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu hujjat yaqin kelajakda mintaq mamlakatlarini o‘zaro hamjihatlikka chorlab turuvchi, iqtisodiy, madaniy va xavfsizlik sohasidagi hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun mustahkam asos vazifasini o‘tovchi tarixiy hujjat bo‘lib qoladi. Xalqaro maydonda Markaziy Osiyo mamlakatlarining birgalikda harakat qilishi global iqtisodiy jarayonlarda faol ishtirok etish imkoniyatini ham kengaytiradi.

Xo‘jandda uch davlat rahbari ishtirokida Do‘stlik stelsi ham ochildi. Stelaning ayni tarixiy hujjat imzolanyotgan pallada ochildishi unga o‘ziga xos ramz baxsh etdi. U mintaq mamlakatlari orasidagi strategik hamkorlikning yorqin timsoliqa aylanishi shubhasiz. Bu ramziy harakat fuqarolar o‘rtasidagi o‘zaro tushunish va qardoshlik munosabatlarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi.

Umuman olganda, mazkur shartnoma nafaqat chegaraviy masalalarni hal qilish, balki Markaziy Osiyoda barqarorlik va taraqqiyotni ta’minlashga qaratilgan keng qamrovli hamkorlik yo‘lidagi muhim qadamlardan biri bo‘ldi. Uning amalga oshirilishi mintaq mamlakatlari uchun uzoq muddatli iqtisodiy o‘shish va siyosiy barqarorlik yo‘lida mustahkam poydevor vazifasini bajaradi.

USHBU MAQOLANI QORAALPOQ TILIDA HAM O‘QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!





Inter-Parliamentary Union
For democracy. For everyone.



IPU ASSEMBLY
Tashkent, Uzbekistan 5-9 April 2025

TOSHKENT – PARLAMENTLARARO DIPLOMATIYA MARKAZI

TOSHKENT DEKLARATSIYASI TINCHLIK VA BIRDAMLIK, INSONIYAT FAROVONLIGIGA XIZMAT QILADI

Boshlanishi 1-betda



Tuliya EKSON,
Parlamentlararo Ittifoq
prezidenti:

— Biz 150-yubiley Assambleyamiz alohida, o‘ziga xos tadbir sifatida tarixga muhrlanishini katta umid bilan kutgan edik. Aziz mezbonlarimiz — O‘zbekiston rahbariyati va xalqi bu vazifani a‘lo darajada uddaladi. Tadbirga kelgan barcha delegatga yuksak hurmat-ehtirom ko‘rsatildi. Anjuman o‘tkazilgan muhtasham inshootlar, musaffo atrof-muhit esa yig‘inimizning esda qolarli o‘tishini ta‘minladi. Bularning barchasi uchun O‘zbekiston Prezidenti va xalqiga, parlament vakillariga ishtirokchilar nomidan rahmat aytaman.

Bugun dunyoda tinchlik va hamkorlikni ta‘minlashda parlamentlar faoliyati har

qachongidan ham muhim. Chunki hozir dunyoga kuchli parlamentarizm kerak. Parlament diplomatiyasi nihoyatda zarur. Shunday vaziyatda bir davrada yig‘ilib, o‘zaro fikr almashish imkoniga ega bo‘lganimiz tarixiy voqea bo‘ldi.

Tadbirda dunyoning ko‘plab parlamentlari vakillari ishtirok etib, fikrlari bilan o‘rtoqlashgani Assambleyaning muvaffaqiyatli o‘tishiga xizmat qildi. Bu jarayonda samarali hamkorlikni rivojlantirish va zarur chora-tadbirlar ko‘rish maqsadida parlament diplomatiyasi ham faol ilgari surildi. Zero, muloqot — eng muhim vositamiz. Biz faqat birgalikda harakat qilish orqali muvaffaqiyatga erisha olamiz.

Sayyoramizda barqaror rivojlanishga erishish borasida faol sa‘y-harakatlar kuzatilyapti. Ushbu maqsadlarning aksariyati ijtimoiy rivojlanish va adolatga taalluqli. Haqiqiy barqaror rivojlanish esa jamiyatlarning eng nozik qatlama qanday munosabatda bo‘lishi, fuqarolarga qanday hayot sifatini taklif etishi va umumiy insoniy qadriyatlariga qay darajada hurmat ko‘rsatishi bilan baholanadi.

Toshkent deklaratsiyasi aynan shu maqsadlarga erishish uchun bizga zarur vositalarni taqdim etdi. Ijtimoiy rivojlanishni ta‘minlashga parlamentlar tomonidan kuchli hissa qo‘shish imkonini beradi. Shu bois, ana shunday muhim tadbirni tashkil etishga qo‘shgan hissasi uchun O‘zbekiston rahbariyatiga, parlamenti vakillariga yana bir bor tashakkur aytaman.



Braxim BUGALI,
Jazoir Xalq milliy assambleyasi
raisi:

— Parlament sohasidagi juda nufuzli sammitga mezbonlik qilgani O‘zbekistonning dunyo miqyosidagi mavqei tobora yuksalib borayotganini namoyon etadi. Prezidentingiz nutqidan biz juda ko‘p yangilik oldik.

Davlatimiz rahbari hamma uchun foydali tashabbuslarni ilgari surdi.

Xalqlarimizning dini, an‘analari, qadriyatlari va urf-odatlaridagi o‘xshashlik o‘zaro aloqalarimizning mustahkam poydevori bo‘lib xizmat qilmoqda. Bugun ikki mamlakat — O‘zbekiston va Jazoir davlat rahbarlarining muloqoti hamkorligimiz kengayishida muhim omil bo‘lmoqda.

Qolaversa, O‘zbekiston muloqot uchun doim ochiq. Shu bois, oxirgi yillarda mamlakatlarimiz o‘rtasidagi siyosiy muloqot, o‘zaro manfaatli savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar munosabatlar rivojlanib bormoqda.

Davlatlararo hamkorlikni yanada mustahkamlashda ikki mamlakat parlamentlarining o‘rni juda muhim. Shu jihatdan yaqinda O‘zbekiston Oliy Majlisi Qonunchilik palatasida “O‘zbekiston — Jazoir Xalq Demokratik Respublikasi” parlamentlararo guruhi tuzilgani ayni muddao bo‘ldi. Bu imkoniyat kelgusida hamkorligimizni yanada rivojlantirishda katta ahamiyatga ega.



Malika QODIRXONOVA,
Oliy Majlis Senati a‘zosi:

— Assambleya doirasidagi tadbirlardan biri gender tenglik mavzusiga bag‘ishlandi. Bu masala alohida kun tartibiga ko‘tarilgani bejiz emas. Zero, Prezidentimiz ta‘kidlaganidek, iqtisodiyotning barcha tarmog‘ida ayollarning erkaklar bilan teng ishtiroki ta‘minlansa, jahon yalpi ichki mahsuloti hajmi 26 foiz o‘sadi.

Bu borada ko‘zlangan natijalarga erishishda xotin-qizlarning barcha sohada, ayniqsa, parlamentdagi faolligi alohida ahamiyatga ega. Hozir dunyoda bu borada ijobiy natijalarga erishilayotir. Ayniqsa, so‘nggi 30 yilda mamlakatlar parlamentidagi ayollar ulushi 11,3 foizdan 27,2 foizgacha o‘sgani alohida e‘tirofqa loyiq.

O‘zbekiston ham tez rivojlanayotgan mamlakatlardan biri sifatida gender masalasiga ustuvor ahamiyat bermoqda. Bu borada mamlakatimizda oilalar mustahkamligi, ayol-qizlarning huquqiy himoyasi va gender tenglikni ta‘minlash masalalari bo‘yicha milliy model yaratildi. Konstitutsiya darajasida hamda mamlakatning strategik hujjatlarida xotin-qizlarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash muhim masalalardan biri etib belgilandi.

Shuningdek, yangi, xalqaro standartlarga mos milliy qonunchilik bazasi hamda institutsional asoslar shakllantirildi. Respublika darajasidan eng quyi bo‘g‘in — mahallalargacha xotin-qizlar masalalari bilan shug‘ullanadigan uzviy tizim yo‘lga qo‘yildi. Xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy faolligini oshirish va qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha yangi mexanizmlar yaratildi.



Natijada xotin-qizlarning davlat boshqaruvidagi ishtiroki kengaymoqda. Hozir oliy ta‘lim muassasalarida o‘qiyotgan talabalarning yarmidan ziyodi qizlardir. Shuningdek, so‘nggi yillarda ishbilamon ayollar safi ikki barobar kengayib, o‘z biznesini yo‘lga qo‘ygani ayollar soni 205 mingdan oshdi. Xotin-qizlarning boshqaruv lavozimidagi ulushi 35 foizga, siyosiy partiyalarda 49 foizga yetdi. Milliy parlamentimizda xotin-qizlarning ulushi 38 foizga yetib, Osiyo mintaqasidagi eng yuqori ko‘rsatkichni qayd etganini Parlamentlararo Ittifoq ham e‘tirof etdi.

Albatta, bu yutuqlar quvonarli. Ammo bugun davrning o‘zi barchamizdan bu boradagi sa‘y-harakatlarimizni o‘zaro uyg‘unlashtirish va yanada faollashtirishni talab qilmoqda. Assambleya doirasidagi muhim tadbirlardan biri — dunyo parlamentariy ayollari forumi bu borada aloqalarni kengaytirishda muhim platforma bo‘lib xizmat qiladi. O‘z navbatida, bunday xalqaro tadbirlardagi muloqotlar dunyodagi millionlab ayollarning hayotini yaxshilashga hissa qo‘shishiga ishonchimiz komil.



Yangi O‘zbekiston ruhi



Qutbiddin BURHONOV,
Oliy Majlis Senati qo‘mita
raisi:

— Assambleya doirasidagi tadbirlarda “Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati” degan umumiy mavzuda kambag‘allikni qisqartirish, munosib mehnat, ijtimoiy integratsiya va aholining qarorlar qabul qilishdagi ishtirokini kengaytirish kabi ko‘plab dolzarb masalalar muhokama qilindi. Chunki keyingi yillardagi tabiiy ofatlar, keskin tus olayotgan iqlim o‘zgarishi, geosiyosiy tanglik va qurolli mojarolar tufayli dunyoning turli hududida kambag‘allik va tengsizlik kuchayib bormoqda.

Yuzaga kelgan vaziyat aholi bandligini ta‘minlash, har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ijtimoiy adolati ta‘minlashga qaratilgan zarur choralarini belgilab olish va amalga oshirishning aniq, samarali mexanizmlarini tubdan takomillashtirishni taqozo etmoqda. Albatta, bu boradagi muammolarni hal etishda xalqaro hamkorlikni yanada kuchaytirish, milliy va mintaqaviy darajadagi amaliy sa‘y-harakatlarni birlashtirish, ilg‘or tashabbuslarni qo‘llab-quvvatlash har qachongidan ham dolzarb.

Gulchehra TOJIBOYEVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi
deputati:

— Poytaxtimizda bo‘lib o‘tgan nufuzli tadbir nafaqat O‘zbekiston, balki butun mintaga uchun ham muhim voqea bo‘ldi. O‘zbekiston tashabbusi bilan “Ijtimoiy taraqqiyot va adolat uchun parlament harakati” mavzusida o‘tkazilgan Assambleyada dunyo parlamentlari vakillari o‘zaro fikr va tajriba almashish, dolzarb masalalarni muhokama qilish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

Parlamentlararo Ittifoqning 150-yubiley Assambleyasining yalpi majlisida Prezidentimiz ishtirok etgani va nutq so‘zlagani anjumaning nufuzini yanada oshirdi. Davlatimiz rahbari O‘zbekistondagi demokratik islohotlarga to‘xtalib, inson huquqlari va erkinliklarini ta‘minlash, qonun ustuvorligini mustahkamlash va davlat boshqaruvini xalqqa yaqinlashtirish O‘zbekiston taraqqiyotining asosiy yo‘nalishlaridan biri ekanini ta‘kidladi.

Darhaqiqat, mamlakatimizning dunyo hamjamiyati bilan ochiq muloqoti tobora chuqurlashmoqda. Bu jarayonda kuchli va mas‘uliyatli parlamentni barpo etish, samarali parlament diplomatiyasini tatbiq qilish uchun keng sharoitlar yaratilyapti.

“O‘zbekiston — 2030” strategiyasida parlament institutini rivojlantirish borasida muhim chora-tadbirlar belgilanib, shu asosda keng qamrovli ishlar bajarilayotir. Natijada qonun chiqaruvchi hokimiyatning jamiyat va davlat hayotidagi o‘rni oshirishga qaratilgan 20 dan ziyod qonun qabul qilindi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda parlament vakolatlari keskin kengaytirildi. Parlamentning hukumatni shakllantirishdagi ishtiroki, huzorni muhofaza qiluvchi organlar ustidan nazorat mexanizmlari yanada kuchaytirildi. Bu chora-tadbirlar inson huquqlarini muhofazalash va jamiyatimizda ochiqlik, shaffoflik va erkinlik muhitini kuchaytirish, xalqimiz farovonligini oshirishga xizmat qilayotir.

Bunday egzu ishlar hayotimizning turli sohalarida tub o‘zgarishlarga zamin bo‘lyapti. Masalan, birgina kambag‘allikni kamaytirish yo‘nalishini olib qarasa,

Tadbir yalpi majlislari, ixtisoslashgan organlar yig‘ilishlarida bo‘lib o‘tgan muhokamalar yakunida qabul qilingan hujjatlarda ilgari surilgan ilg‘or g‘oya va tashabbuslar bugun yuzaga kelgan ana shunday real vaziyatdan kelib chiqqan holda mamlakatlar parlamenti faoliyatini samarali tashkil etish imkonini beradi. Bu esa dunyoda tinchlikni asrash va taraqqiyotni ta‘minlashda katta ahamiyat kasb etadi.

Davrimizning ana shunday o‘tkir talablaridan kelib chiqqan holda mamlakatimizda ushbu sohada katta islohotlar o‘tkazilmoqda. Xususan, aholining ijtimoiy himoyasini kuchaytirish davlat siyosatining eng ustuvor yo‘nalishlaridan biri etib belgilandi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda “ijtimoiy davlat” tamoyili mustahkamlanib, davlatning ijtimoiy majburiyati 3 barobar ko‘paytirildi. Ushbu prinsiplar asosida ijtimoiy himoyaning mutlaqo yangi tizimi yaratildi. Soha tubdan isloh qilindi, ijtimoiy yordamning aniq, maqsadli va manzilliligini ta‘minlashga qaratilgan yangicha yondashuv va mexanizmlar joriy qilindi.

Bu sohada keng ko‘lamli islohotlar boshlangan davrdan beri kambag‘allik darajasi deyarli 3 barobar qisqardi. O‘zbekiston mazkur yo‘nalishdagi amaliy sa‘y-harakatlari bilan ijtimoiy adolat va munosib mehnat tamoyillarini xalqaro doirada ham dadil ilgari surib kelmokda.

O‘z navbatida, bu borada erishilayotgan natijalar xalqaro miqyosda ham munosib e‘tirof etilayotgani bizga faxr-iftixor bag‘ishlaydi. Shu bilan bir qatorda, bu borada hali oldimizda ko‘plab dolzarb vazifalar ham bor. Ushbu tadbir ana shunday ustuvor masalalar ijrosi yuzasidan o‘zaro fikr almashish va hamkorlikni yanada kengaytirish orqali muammolarga samarali yechim topish imkonini berdi.



oxirgi sakkiz yilda 7 milliondan ziyod kishi kambag‘allikdan chiqarilib, kambag‘allik darajasi 35 foizdan 8,9 foizga tushirilganini ko‘ramiz. Joriy yilda bu ko‘rsatkichni 6 foizga pasaytirish maqsad qilingan. Shu bo‘yicha “Kambag‘allikdan farovonlik sari” dasturi amalga oshirilyapti.

Xalqimizning turmush tarzini yaxshilashga to‘g‘ri bo‘layotgan yana bir muammo — ishsizlik. Uni kamaytirish borasidagi sa‘y-harakatlarni ham alohida e‘tirof etish joiz. O‘tgan yili bu borada 5 million kishining bandligiga ko‘maklashish dasturi ishlab chiqilib, yil mobaynida 5 million 265 ming fuqaro daromadli ish bilan ta‘minlandi. Bir qator mikroloyihalar ishga tushirilishi hisobiga ko‘plab yangi ish o‘rinlari ochildi. Joriy yilda ham bu xayrli ishlar davom etyapti.

O‘zbekistonda xotin-qizlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy jarayonlardagi faol ishtirokini ta‘minlash uchun zarur huquqiy va institutsional asoslar yaratildi. Tadbirda bu borada xalqaro hamkorlikni kuchaytirish, tajriba almashish va parlamentlar darajasida gender masalalari bo‘yicha muloqotni rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratildi.

Umuman olganda, ushbu tadbirning aynan mamlakatimizda o‘tgan O‘zbekistonning xalqaro maydondagi nufuzi oshib borayotganini yaqqol tasdiqladi. Bu nafaqat tarixiy voqea, balki parlament diplomatiyasini keng namoyon etishda muhim qadam bo‘ldi.

“Yangi O‘zbekiston” muxbiri
Bahor XIDIROVA yozib oldi.



O‘ZBEKISTONDAGI

Bir necha yil avval yurtimizda qimmatbaho za‘faron o‘simligini yetishtirib, qayta ishlovchi korxona haqida eshitgandim. Mahsulotlari “BMB Za‘faron” nomi ostida xorijga eksport qilinadigan mazkur brend birinchilardan bo‘lib noyob o‘simlikni mamlakatimizdagi katta yer maydonida yetishtirishni yo‘lga qo‘ygani e‘tiborimni tortgan. Ushbu yo‘nalishda mahalliy bozorga dadil kirib kelgan “BMB HOLDING” qisqa muddatda yetakchi tuzilmaga aylandi. Hozir yurtimizdagi mashhur brendlار haqida gap borsa, albatta, uning ham nomi tilga olinadi. Bugun u nafaqat O‘zbekiston, balki xalqaro biznes hamjamiyati orasida ham tobora katta obro‘ga ega bo‘lib bormoqda.

MASHHUR BREND

ZA‘FARON YETISHTIRISH VA QAYTA ISHLASH QANDAY QILIB MILLIY G‘URURGA AYLANDI?



Ammo ko‘pchilik qatori men ham bu xolding faqat za‘faron yetishtirib, qayta ishlash bilan shug‘ullanadi deb o‘ylar ekanman. Boisi, hamisha “BMB Za‘faron” brendi ostida qadoqlangan mahsulotlarga ko‘zim tushsa, ular haqida dorivor o‘simlikning qadoqlangan ko‘rinishi degan tasavvurda edim. “BMB HOLDING” faoliyati bilan yaqinroq tanishgach, za‘faron yetishtirish tashkilotining faqat bir yo‘nalishi ekanini tushundim. Aslida, xolding mamlakatimiz agrar tarmog‘idagi yirik biznes brendlaridan biri bo‘lib, turli xil qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda o‘ziga xos tajriba yaratgan. Ayni paytda tuzilma tarkibidagi 4 ta qo‘shma va 27 ta shu‘ba korxonada 6500 doimiy va 80 ming mavsumiy ishchi mehnat qilishi ko‘lamini yanada aniq tasvirlaydi.

Shu kunlarda “BMB HOLDING” o‘zining 8 yilligini keng nishonlamog‘da. Sana munosabati bilan xolding bosh ofisida o‘tgan matbuot anjumanida yaqin hamkorlar va ommaviy axborot vositalari vakillari ishtirok etdi. Xolding kuzatuv kengashi raisi Bekzod Mamatqulov mehmonlarni tuzilma tashkil etilishi tarixi, bugungi faoliyati bilan tanishtirdi. Katta ekranda namoyish etilgan videorolikda tuzilma faoliyatiga oid qiziqarli ma‘lumotlar berildi.

Albatta, shunday yirik xolding muvaffaqiyati jurnalistlarni ham qiziqtiradi. Matbuot anjumanini davomida bu boradagi barcha savollarga javob olindi. Shundan so‘ng qatnashchilar xoldingning yangidan qurilgan zamonaviy bosh ofisi bilan tanishdi. Ko‘rgazma xonasiga joylangan mahsulotlarning barchasi “BMB HOLDING” tizimidagi korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan brend ostida bejirim tarzda qadoqlangan.

Ochig‘i, kichik tadbirkorlik subyektidan yirik xoldingga aylanish uchun 8 yil qisqa muddatdek ko‘rinadi. Chunki xorij amaliyoti bo‘lganida boshqa gap edi. Ammo gap bundan sakkiz yil oldin mamlakatimizda islohotlarning yangi bosqichiga qadam qo‘yilgan, tadbirkorlik endigina eski tizim “zanjiri”dan xalos qilinayotgan, odamlarda hamon biznes qilish borasida katta qo‘rquvlar, ikkilanishlar bo‘lgan vaqt haqida boryapti. Shunday sharoitda davlatimiz rahbari yurtimizda qulay tadbirkorlik muhitini yaratib, kichik va o‘rta biznes vakillarini faol qo‘llab-quvvatlashga doir qator imkoniyat va imtiyozlar bergani ko‘pchilikda qiziqish uyg‘otgani ham rost. Bu boradagi katta islohotlar yangi O‘zbekistonning milliy brendlari paydo bo‘lishiga xizmat qildi.

— Kompaniyani tashkil etish harakati 2016-yil oktyabrda boshlangan. 2017-yil 4-aprelda dastlab “BMB Trade Group” nomi bilan davlat ro‘yxatidan o‘tkazildi, — deydi “BMB HOLDING” kuzatuv kengashi raisi Bekzod Mamatqulov. — Ya‘ni sakkiz yil avval mamlakatimiz tarixida yangi O‘zbekiston davri boshlanib, hayotimiz ulkan islohotlarga yuz tutgan pallada xususiy tadbirkorlik uchun keng yo‘l ochilishi davlat tizimidan biznesga qadam qo‘yishimga turki bo‘ldi. Tadbirkorlarga berilgan imtiyoz va imkoniyatlardan foydalanib, ish boshlashga qaror qildik va barchasini noldan yaratdik. Asosiy faoliyatimiz investitsiyaviy loyihalar uchun konsalting xizmatlari ko‘rsatish, xalqaro biznes va savdo aloqalarini rivojlantirish, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish, iqtisodiyotning turli tarmoqlariga innovatsion texnologiyalarni joriy etish va zamonaviy agrosanoat klasterlarini yaratishga asoslangan. 2023-yilga kelib, rebrending qilindi hamda “BMB Trade Group” kompaniyasi nomi “BMB HOLDING”ga o‘zgartirildi. Uning tarkibiga kiruvchi shu‘ba va qo‘shma korxonalar nomi hamda faoliyati ham o‘zgardi. Bugunga qadar xolding mingdan ortiq xorijiy kompaniyaga xizmat ko‘rsatdi. Xalqaro hamkorlik kengayishi ortidan 1,5 milliard dollarlik investitsiya loyihalari amalga oshirilyapti.

BAXMALNING “QIZIL OLTIN”I

Mazkur loyihaning bir qismi bevosita za‘faron yetishtirish va qayta ishlash bilan bog‘liq, albatta. Hozir Baxmal desa, ko‘pchilikning ko‘z o‘ngiga mashhur olma va boshqa mazali mevalar bilan birga za‘faron plantatsiyalari keladi. Boisi, bugungi kunga kelib, “BMB HOLDING” mahsulotlari nafaqat hududning, balki O‘zbekistonning xalqaro darajadagi brendiga aylani b ulg urdi. Bu brend faqat nomi emas, balki yuqori sifati bilan ham xaridorlarga manzur bo‘lyapti. Tuzilma tarkibidagi “BMB — Opera Zafferano” korxonasi esa nafaqat

Janubiy Koreyadagi laboratoriyalarda ikki bosqichli chuqurlashtirilgan tekshiruvlardan o‘tkazilib, “ISO 3632-1/2011” xalqaro standarti asosida 1-toifa sifat darajasi sertifikatini olgan. Plantatsiyada za‘faronni ekish, yetishtirish, agrotekhnik tadbirlar o‘tkazish, terib olish, qayta ishlash, saqlash va qadoqlash jarayonlarini o‘rganagan Niderlandiyaning “Control Union Certifications” tashkiloti tomonidan esa za‘faron uchun “USDA Organic” sertifikat olingan. Ahamiyatli tomoni shundaki, “BMB Opera Zafferano” qo‘shma korxonasi hamda “BMB Shifo” korxonasiga za‘faron mahsulotini AQSHga eksport qilish imkoniyatini beradigan FDA ruxsatnomasi ham taqdim etilgan.

Za‘faron o‘ta noyob va dunyodagi eng qimmatbaho o‘simliklardan biri bo‘lib, qadimda Sharqning buyuk allomalari uni “qizil oltin”, deb ta‘riflagan. Tarixiy manbalarda esa ushbu o‘simlik insoniyat tanovul qilishni boshlagan eng birinchi ziravor ham deyiladi. Uning qadimda faqat hukmdorlar dasturxonida bo‘lganiga oid manbalar bor. O‘simlik “ziravorlar sultoni” yoki “sultonlar ziravori” nomini olgani boisi shunda bo‘lsa kerak.

“BMB HOLDING” o‘tgan qisqa vaqtda za‘faron yetishtirish va qayta ishlashda o‘ziga xos tajriba yaratib, nafaqat Markaziy Osiyoda, balki butun dunyoda o‘z o‘rniga ega bo‘lib bormoqda. E‘tiborlisi, bu yerda barcha jarayonlar



O‘zbekiston, balki Markaziy Osiyodagi eng yirik za‘faron plantatsiyalaridan.

Xoldingga yuzga yaqin tayyor mahsulot yetishtirilib, qayta ishlansa-da, asosiy mahsulot za‘faronidir. Shu bois, dorivor o‘simlikning eksport hajmi va qiymati yildan yilga o‘sib bormoqda. 2021-yilda 1,2 million yevrolik mahsulot eksport qilingan bo‘lsa, 2027-yilda bu hajmini 10 baravargacha, za‘faron plantatsiyalari maydonini 2 ming gektarga yetkazish rejalashtirilgan. “BMB Za‘faron” brendidagi milliy mahsulot o‘nlab mamlakatga kirib bordi. Qanday qilib ushbu dorivor o‘simlik xolding “tashrif qog‘oz”iga aylangani, za‘faron yetishtirish g‘oyasi qayerdan paydo bo‘lgani va mahsulotga talab yuqoriligi sababi ko‘pchilik qatori bizni ham qiziqirdi.

— G‘oya muallifi, albatta, Prezidentimiz. Gap shundaki, davlatimiz rahbari 2017-yil 24-25-fevral kunlari Qashqadaryo viloyatiga tashrifi davomida yurtimizda za‘faron plantatsiyalarini barpo etish, farmatsevtika sanoati ehtiyojlarini ta‘minlash va eksportkor dorivor o‘simliklarni ko‘paytirish bo‘yicha qator topshiriqlar berdi. Dorivor o‘simliklarni yetishtirishga tadbirkorlikning yangi yo‘nalishi sifatida qaralib, qo‘shimcha imtiyozlar ham berila boshladi, — deydi Bekzod Mamatqulov.

— Tahlil qilganimizda za‘faron jahon bozorida nihoyatda qimmatbaho dorivor o‘simlik ekani oydinlashdi. Shundan so‘ng “BMB — Opera Zafferano” nomi bilan O‘zbekiston — Italiya qo‘shma korxonasini ochib, Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi 50 gektar maydonda za‘faron plantatsiyasini barpo qildik. Maydonda Italiyadan keltirilgan 5 million dona za‘faron pilyozchasi qadaldi. Loyiha to‘liq italiyalik olimlarning agrotekhnologiyalari asosida amalga oshirilgan. Baxmal tumani ilmiy tadqiqot natijalari va ekspertlarning xulosalari asosida tanlab olingan. Yerni tayyorlash, urug‘ni ekish, undirish va nihollarni parvarishlash ishlari ham italiyalik mutaxassislarning to‘liq nazorati ostida bajarildi. Birinchi hosil yig‘ishtirib olingach, bejirim idishlarda qadoqlanib, iste‘molchilarga yetkazildi. Baxmalda yetishtirilgan mahsulot dunyoning eng rivojlangan mamlakatlari, xususan, Italiya, Fransiya, Niderlandiya hamda

chuqur bilim, xorij tajribasi va zamonaviy texnologiyalar asosida amalga oshiriladi. Mutasaddilar eksport masalasida qo‘shni davlatlarning deyarli o‘zimizniki ekanini aytib, o‘nlab Yevropa mamlakatlari nomini alohida sanamoqda. Boisi, mahsulotlar allaqachon jahon bozorida o‘z nomi va o‘miga ega bo‘lib ulg urdi. Sifat borasida xaridorlarning ishonchi baland.

Ayni paytda korxonada za‘faron qayta ishlani b, qadoqlangan holda eksport qilinishidan tashqari za‘faron qo‘shilgan boshqa tayyor mahsulotlar ham ishlab chiqarilmoqda. Za‘faronli choy, za‘faronli asal, novvot, osh tuzi kabilar shular jumlasidan. Bularning hammasi ekologik toza, organizm uchun foydali mahsulotlar bo‘lib, xolding “Sog‘lom millat sari” shiori ostida faoliyat olib borishidan dalolat.

“XOM-ASHYO HAM, MAHSULOT HAM O‘ZIMIZDAN”

“BMB HOLDING” faoliyati avvalboshdan oq qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish va eksport qilishga asoslangan. Keyinroq bu jarayon klasterlarda birlashtirildi. Qisqa muddatda xolding iqtisodiyotning turli jabhasiga dadil kirib borib, jamiyatlar va korxonalar ta‘sis etdi. Ularida qishloq xo‘jaligi, turizm, transport va logistika obyektlarini qurish, ijtimoiy infratuzilmalarni rivojlantirish, developerlik faoliyati, shuningdek, mamlakatimizda sportni taraqqiy ettirish bilan bog‘liq qator ijtimoiy va iqtisodiy loyihalar amalga oshirilmog‘da.

Xolding faoliyatining eng katta yo‘nalishi qishloq xo‘jaligi sohasi hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashga qaratilgan ishlab chiqarish quvvatlaridir. Buning uchun oziq-ovqat, meva-sabzavot va dorivor o‘simliklar klasterlari tashkil etilgan. Xususan, xolding tarkibida Jizzax viloyati Arnasoy tumanidagi 1200 gektardan ortiq maydonda



eksportkor qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirishga ixtisoslashgan “BMB Agro”, meva-sabzavotchilik yo‘nalishidagi “BMB Agroklastar” korxonalari ham faoliyat yuritib kelmog‘da.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining deyarli 80 foizi klasterlarning o‘ziga tegishli yerda yetishtiriladi. Jizzax viloyatidagi 6 ta tumanida umumiy 30 ming gektardan ziyod maydonda shartnoma orqali paxta, g‘alla va meva-sabzavot mahsulotlari ekip, parvarishlanadi. Ya‘ni xolding tuzilmalari tayyor mahsulot uchun zarur xomashyoni o‘zida tayyorlaydi va yetishtirishdan ishlab chiqarishgacha bo‘lgan zanjimi to‘liq qamrab oladi. Bu davlatimiz

Mahsulotlar belgilangan tartibda saralangach, xolding tizimidagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini birlamchi va chuqur qayta ishlashga ixtisoslashgan, yillik quvvati esa 85 ming tonnaga teng “BMB Agro Plus” korxonasida chuqur qayta ishlanadi.

— Korxonalarda mahsulotlarni chuqur qayta ishlashning 4 xil yo‘nalishi mavjud, — deydi xoldingning marketing, risk va iqtisodiy tahlil bo‘limi boshlig‘i Azizbek Madaminov. — Birinchisi, meva-sabzavotdan tayyorlanadigan pyure mahsulotlari. Ikkinchisi, quritilgan tayyor mahsulotlar. Meva-sabzavot quritilgach, qoqi holatida qadoqlanib, eksport qilinadi. Ona diyorimizda yetishtirilgan meva-sabzavotlarga xorijda qiziqish katta.

Ammo har doim ham ularni daladan uzilgan vaqtdagidek ko‘p miqdorda yetkazish imkoni bo‘lmaydi. Quritilgan mahsulotlarni esa saqlash ham, yetkazib berish ham ancha qulay. Uchinchi yo‘nalish sublimatsiya usuli bo‘lib, meva-sabzavotlar maxsus texnologiya yordamida ta‘mi, foydali elementlari saqlab qolingan holda suvsizlantiriladi. Ularni chips holida iste‘mol qilish mumkin. Bu usul keyingi yillarda ommalashayotgan ilg‘or texnologiyaga asoslangan. Mahsulot qay vaqtda iste‘mol qilinsa ham o‘sha meva yoki sabzavotning yangi uzilgandagidek ta‘mini beradi. Bundan ko‘proq sanoat miqyosida mevali choy mahsulotlari tayyorlashda ham



foydalaniladi. Qayta ishlashning to‘rtinchi yo‘nalishi esa ko‘pchilik yaxshi biladigan shok va akustik muzlatish usulidir. Bunda mahsulot muzlatib qo‘yiladi va kerakli paytda uni ishlatisish mumkin. Undan ko‘proq restoranlarda, qandolatchilikda foydalaniladi. Xorijda ham bunday mahsulotlarga talab yuqori.

“BMB Impex” korxonasida tashqi bozorga qishloq xo‘jaligi mahsulotlari eksporti, ichki bozor uchun talabgar mahsulotlar importini amalga oshirish imkoniyati samarali yo‘lga qo‘yilgan. Tayyor mahsulot ishlab chiqarish bir jarayon bo‘lsa, uni eksport qilish yana alohida



Klasterda yetishtirilgan mahsulotlar hosili yig‘ib olingach, qayta ishlash korxonalariga yuboriladi. Dastlab “BMB — NRC Agrologistics” korxonasida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari birlamchi saralash, kalibrash va qadoqlash bosqichidan o‘tadi. Korxonada yiliga 810 ming tonna qishloq xo‘jaligi mahsulotini qayta ishlash hamda 10 ming tonna mahsulotni sovitskichlarda saqlash imkoniyati yaratilgan. Agrologistika majmuasidagi yagona darcha tizimi va eng zamonaviy laboratoriya mahalliy ishlab chiqaruvchilar uchun o‘z mahsuloti eksportiga doir barcha turdagi hujjatni qisqa muddatda rasmiylashtirish imkonini beradi.

masala. Xorij bozori talablari kun sayin ortib borayotgan va iqtisodiy ko‘rsatkichlar har kuni o‘zgarib turgan sharoitda katta raqobat maydonidan o‘rin egallash oson emas. Bu borada mexanizmlar aniq ishlashi kerak. “BMB HOLDING” eksport masalasiga katta e‘tibor qaratishi boisi shunda.

Tuzilma tarkibidagi eksport-import jarayonini amalga oshiruvchi 8 ta korxona tomonidan o‘tgan davrda 40 dan ortiq davlatga xaridorlar mahsulotlar yetkazib berildi. Birgina o‘tgan yilning o‘zida 48 million dollarlik qishloq xo‘jaligi mahsuloti eksport qilingani ish ko‘lami nechog‘liq ekanidan dalolat beradi. Joriy yil

yakuniga qadar ushbu ko‘rsatkichni 75 million dollarga yetkazish ko‘zda tutilgan.

Shuningdek, yuqori sifati bilan ajralib turadigan za‘faron va boshqa milliy mahsulotlar yurtimiz hamda xorijda o‘tkazilgan nufuzli xalqaro ko‘rgazmalarda namoyish etildi. Germaniyaning Berlin shahrida o‘tkazilgan “Yashil haftalik — 2024”, “O‘zbekiston — Xitoy: Shinjon mahsulotlari”, “IRAN EXPO — 2024”, “World of Trade — 2024”, “INNOPROM”, “Bridal Fashion Show — 2024”, Malayziyadagi “Made in Uzbekistan” kabi xalqaro ko‘rgazmalar shular jumlasidan.

TURIZMDA YANGI BREND

Keyingi yillarda “BMB HOLDING” o‘z faoliyatini turizm yo‘nalishida ham kengaytirib bormog‘da. Xususan, “BMB Global Sayohat” korxonasi hamda Toshkent viloyati va Jizzax shahrida “BMB Za‘faron” brendida zamonaviy mehmonxona va restoranlar tarmog‘i faoliyati yo‘lga qo‘yilgani so‘zimiz isbotidir. Toshkent viloyatining Chinoz tumanida sayyohlar, yo‘lovchi va haydovchilar uchun eng zamonaviy qulayliklarga ega “BMB Village” majmuasi ishga tushirildi. Navoiy hamda Sirdaryo viloyatlarida joylashgan Za‘faron sog‘lomlashtirish majmualari esa xalqimiz salomatligi yo‘lida xizmat qilmoqda.

Xolding tizimidagi “BMB High-tech” korxonasi tomonidan o‘tgan davrda ishlab chiqarish majmualari, restoran va mehmonxona tarmoqlari, zamonaviy biznes markazlari, ko‘p qavatli turar joy maskanlari hamda ijtimoiy sohalarda qariyb 200 dan ortiq obyekt barpo etildi.

O‘tgan yillarda “Yangi O‘zbekiston ishbirolmonlari” brendi timsoili sifatida tanilgan “BMB HOLDING” nafaqat tijorat, balki jamiyatimiz, insonlar hayotini yaxshilashga qaratilgan qator ijtimoiy loyihalarni ham muvaffaqiyatli amalga oshirmog‘da. Jumladan, Baxmal tumanida o‘tgan yili foydalanishga topshirilgan Za‘faronni quritish va qadoqlash korxonasiga tutash hududdagi 2,5 kilometrga yaqin yo‘lga beton qoplama yo‘qotilib, 25-30 kilometr uzunlikda elektr tarmoqlari tortib kelindi. Arnasoy tumanida o‘tgan 10 kilometr uzunlikdagi qishloq yo‘llariga shag‘al yotqizilib, 1,5 kilometr yo‘l asfaltlandi hamda mahalliy aholi uchun yanada qulayliklari yaratish maqsadida “Cho‘lquvar” ulgurji va chakana savdo majmuasi barpo etildi.

Shuningdek, xolding tomonidan og‘ir kasalliklar, jumladan, saraton, bolalar seerbal falajiga chalingan hamda ko‘zi ojiz bemorlar davolanishi uchun muntazam moddiy yordam berilmoqda. Iqtidorli talabalar uchun maxsus stipendiyalar joriy etilib, turli OTMlarda o‘qiyotgan yuzlab yoshlar qo‘llab-quvvatlanaypti.

Yoshlarning sportga qiziqishini oshirishga qaratilgan qator ijtimoiy loyihalar ham yo‘lga qo‘yilgan. Jumladan, xolding “So‘g‘diyona”, “Lokomotiv” singari professional futbol klublariga homiylik qildi. Ayni paytda O‘zbekiston professional futbol ligasi chempionati, O‘zbekiston milliy avtomobil va mototsikl federatsiyasining ham rasmiy homiysi. Xolding loyihalaridan bo‘lgan “BMB PFC” professional futbol klubi esa bugungacha bir necha bor O‘zbekiston chempionligi, kubogi va superkubogini qo‘lga kiritdi.

Joriy yilda ham xolding o‘z oldiga qator reja va maqsadlarni belgilab olgan. Ular qatorida Sirdaryo viloyatining Sardoba tumanidagi yuzlab xotin-qizlar bandligini ta‘minlash maqsadida yangi tikuv fabrikasini tashkil etish, Jizzax viloyatining Baxmal tumanida za‘faron plantatsiyalari maydonini kengaytirish, Jizzax viloyati hududidan o‘tuvchi M-39 magistrali bo‘yida turistlar, yo‘lovchi va haydovchilar uchun eng zamonaviy qulayliklarga ega bo‘lgan “BMB Village” majmuasini ishga tushirish, Jizzax shahrida keng tarmoqli zamonaviy savdo kompleksi va biznes markazini bunyod qilish kabilar bor.

Mamlakat iqtisodiyoti va tadbirkorlik rivojida sezilarli o‘rin egallab kelayotgan “BMB HOLDING” aholi bandligini ta‘minlash, bo‘sh ish o‘rinlari yaratish, farovonlikka hissa so‘kishni bosh maqsadlaridan biriga aylantirgan. Sohada malakali kadrlar tayyorlashda ham o‘ziga xos maktab yaratib, buni keng miqyosda davom ettiriyapti.

— Xolding faqat mendan iborat emas. O‘rtimda minglab xodimlar, mutaxassislar, bir oilaga aylangan xolding jamoasining mehnati turibdi, — deydi B.Mamatqulov. — Rahbarlik lavozimlariga kadrlar o‘zimizda tayyorlanadi. Shu yerda bir necha yil ishlab, tajriba o‘rtirgandan keyin mas‘ul lavozimlarga qo‘yiladi. Yoshlarga keng yo‘l beryapmiz. Hozir xolding tizimidagi bosh direktor va o‘rinbosarlarning aksariyati 30-35 yoshda. Barchasi shu yerda bir necha yil ishlagan. Boshqaruv tizimidagi xodimlarimizning ko‘pi xorijda malaka oshirgan. Top-menejrlarni yilda ikki marta Prezident huzuridagi Davlat boshqaruvi akademiyasida o‘qitamiz. Boshqa xodimlar ham tizimli ravishda o‘z ustida ishlaydi. Chunki hozir bilim va malaka bo‘lmasa, biror natijaga erishish qiyin. Shu bois, xoldingimizning bugungi muvaffaqiyatida kadrlarimizning o‘rni katta.

Shuni alohida ta‘kidlash lozimki, “BMB HOLDING”ning 8 yillik shu qisqa bir davr mobaynida erishgan yutuqlari zamirida davlatimiz rahbari tomonidan yaratib berilgan qulay ishbirolmonlik muhiti, kundan kun liberallashib borayotgan milliy qonunchilik tizimi, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining tadbirkorlar uchun ochiqligi va o‘zaro hamkorlikka tayyorligi, bank va moliya institutlarining bevosita moliyaviy ko‘magi va kredit mablag‘lari hamda xalqaro toifadagi do‘stlarimizning ishonchi yotadi.

Qisqasi, ochiqlik va o‘zaro manfaatli hamkorlikni o‘z ichun bosh maqsad qilgan “BMB HOLDING” 8-yildan beri xalqimiz bilan birga kelajak sari ishonchli va dadil odimlab kelmog‘da.

Iroda TOSHMATOVA,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri

MANGU HILPIROVCHI TUG‘

(Xudoybergan Devonov hayotiga ehizgilar)

O‘zbek kino va foto san’ati tarixida alohida o‘rin egallagan Xudoybergan Devonov esa ushbu yo‘nalishni ilk tajribadan o‘tkazib, uni rivojlantirib, yurtning salkam yarim asrlik davrini o‘z ismi bilan birga qo‘shib muhrladi.

“Taassufki, tarix sahifalarida o‘zining qonli izini qoldirgan betayin urush xalq me‘morchiligining mangu mevasi — muhtasham obidalar shikastlanishi, nurashi va aloqibnat umr kabi jizg‘inak va to‘zonli sahroda o‘tmishning ulug‘ gulxanlarini o‘chirib huzurlangan, e‘tiqodsiz, sharafsiz kimsalar tomonidan vayron etilishiga asosiy sababchi bo‘ldi. XIX asr o‘rtalarida boshlangan rus istilosi paytida nafaqat aholisi qarshilik ko‘rsatgan hududlar, balki masjidud madrasalar, shahar “pasporti”ga aylangan ko‘hna binolar ham to‘pga tutildi. Chor hokimiyatidan battarroq chiqqan bolsheviklar esa shu noinsoniy harakatlarni o‘ziga xos jirkanchlik bilan davom ettirib, diniy-ma‘rifiy obidalarini bir chetdan yo‘q qilishga kirishdi. Xuddi shu mudhish kelajakni oldindan ko‘rgandek, yevropalik va rossiyalik ma‘rifatparvar fotograflar me‘moriy yodgorliklarni suratga olishda davom etdi.

Ajnabiyy fotograflarning O‘rta Osiyoga, xususan, Turkistonga tez-tez kelishi shu yerda foto ixlosmandlari ko‘payishiga turki bergach, XIX asr oxirlarida Toshkentda Turkiston fotografiya va nafis san‘at havaskorlari jamiyati tashkil topdi. 1899-yilda birinchi marta Toshkentda fotoko‘rgazma ochildi.

O‘zbek kino va foto san‘ati tarixida alohida o‘rin egallagan Xudoybergan Devonov esa ushbu yo‘nalishni ilk tajribadan o‘tkazib, uni rivojlantirib, yurtning salkam yarim asrlik davrini o‘z ismi bilan birga qo‘shib muhrladi.

Xo‘jayli tumani boshqaruvchisi va kuzatuvchisi Nurmuhammad Devonov oilasida 1879-yilda tug‘ilgan Xudoybergan bolaligidan favqulodda zukkoligini namoyon qilgan. Ta‘lim asoslarini uyda oladi — otasi unga o‘qish va yozishni o‘rgatadi. O‘g‘lining rus tiliga qiziqishi paydo bo‘lganini ko‘rib, uni rustuzem maktabiga joylaydi. Keyin o‘g‘li kasbhunar o‘rganishi hamda mahoratli usta bo‘lib yetishishi uchun soatsozga shogirdlikka beradi.

Xudoybergan Devonov shaxsi bo‘yicha tarixiy hujjatlarga ko‘p bor murojaat qilgan tanliqli adabiyotshunos Naim Karimov u haqdagi maqolalarining birida Devonov o‘zi yozgan tarjimaiy holini keltiradi: “1889-yilda meni soatsoz ustaga shogird qilib berdilar. Bir yil davomida bu ishni o‘rganish uchun ustozim bo‘lmish Adam ismli bir rus ustaga 300 so‘m to‘ladim. Uch yil bu ish bilan shug‘ullandim. Shul vaqtlarda foto ishlarini o‘rganishga menda katta havas paydo bo‘ldi. 1903-yil bir miqdor pul anjom qilganim holda Polvon hoji bilan birlik-la Maskovga ketdim”.

Xudoybergan Devonov buni yozgan kezlarida chamasii Oqmasjidga kelib o‘tmashgan ilk ustozii Vilgelm Pennerdan fotografiyani o‘rganaganini aytish xavfli bo‘lgan. Shuning uchun ham u Adamning rus millatiga mansubligiga urg‘u bergan holda Penner nomini umuman tilga olmagan. Holbuki, unda foto san‘atiga qiziqish uyg‘onishi va uning ilk o‘zbek fotografi bo‘lib shakllanishi shu Vilgelm Pennerning nomi bilan bevosita bog‘liq.

Ha, aynan Xiva xonligiga Volgabo‘yidan ko‘chib kelgan nemis mennonitlari uning kinooperatorlik va suratkashlikka bo‘lgan yashirin iste‘dodini yuzaga chiqarishga turki bergan. Ular Xorazmga namunali qishloq xo‘jaligini rivojlantirish uchun Turkiston harbiy okrugii general-gubernatori fon Kaufman tomonidan taklif qilingandi, biroq 1882-yilda Kaufmannning to‘satdan vafot etishi mennonitlarga tashvish keltiradi. Diniy kelishmovchilik sabab turkman yovmutlari siqishtirmagach, ular Said Muhammad Rahimxon II ga yordam so‘rab murojaat qiladi. Xon bag‘rikenglik ko‘rsatib, xorijliklarni Xivadan 12 chaqirim uzoqlikda bo‘lgan, akasi Otajon to‘ra mulkidagi Oqmasjidga ko‘chib o‘tishga amr qiladi. Kuz kunlarining birida Oqmasjid qishlog‘i yonidagi Ulilko‘lga baliq

oviga yo‘l olgan Xudoyberganni Pennerning ulkan allambalo narsa bilan sirli ishlar qilayotgani e‘tiborini tortadi...

Shunday qilib, soatsozlik bilan shug‘ullangan va ehtimol, yoshlik yillarini shu hunarga bag‘ishlamochi bo‘lgan bo‘z yigitning Vilgelm Penner bilan uchrashuvi uning taqdirini yaxshi ma’noda ag‘dar-to‘ntar qilib yubordi. Kishilar va tabiat manzaralarining bir lahzadagi holatini fotosuratda muhrlab qoldirish chindan ham mo‘jiza edi. Uning baxtiga Vilgelm Penner ham o‘z hunarini berkitishga urinmaydigan, bilganlarini baham ko‘radigan olijanob inson edi. Vilgelm Xudoyberganda foto san‘atiga mehr uyg‘otib, unga surat olish va tasvimi qorong‘i xonada fotodoriilar yordamida yuzaga chiqarishning murakkab jarayonini qunt bilan o‘rgatadi. Hatto unga “Zot” rusumli fotoapparat sovg‘a qiladi. Xudoybergan qishloq bolalari Panor bobo deb chaqiradigan bu istarasi issiq odamning samimiy qo‘llovi bilan surat olishga kirishib ketadi.

Uning qora quti atrofidagi telbanamo harakatlari yigitiga qiziq tuyular, qarmog‘iyu baliqlar endi butkul yodidan ko‘tarilgan, ongu shuurini ushbu tilsim matohning neni ko‘rsa, go‘yoki vaqtni to‘xtatib, ko‘rganini o‘z xotira bo‘yog‘iga botirib, tasvimi muhrlaydigan shisha ko‘zi zabt etgan, uning oldida kuymalanayotgan kishi esa barcha siru sinoatlarining jonli guvohidek tasavvur uyg‘otardi. Shu sababdan undan nimadir so‘rashga dastlab yigitning jur‘ati yetmadi.

Penner xonanishin bo‘lib qolgan esa-da, dilbar suhbatlarga hali ham tashna, sumbatidan qo‘rsdek ko‘ringani bilan qalbidaryo odam edi. Chehrasida hali navqironlik davri shamlari o‘chmagan, garchi sinovchan ko‘zlaridagi yovvoyi ohu kabi hurkak, begona mung odamlarni o‘ziga yaqinlashtirmasa-da, fe‘li ochliqligi, kulib murojaat qilishi o‘rtadagi o‘ng‘aysizlikning ko‘rinmas pardasini ko‘tarib

qaradi-yu, unda boshqa tomoshabin yuzlarda sira ko‘rmagan shavq, g‘ayrat ifodasini sezdi, qalbining ko‘pdan buyon nur ko‘rmagan xax ungurlari birdan isiganini yigitning tanti va mag‘rur qiyofasidan bilish qiyin emasdi. Bir paytlar o‘zi ham his qilgan ushbu tuyumni eslab jilmaydi.

Penner hujrasiga kirib chiqqan payt zulmatni tilimlab darchadan qog‘ kirayotgan kunning simobday bir tutam yog‘dusiga uzoq tikilib qoldi, bola ham ketgan shekilli deb o‘yladi. Tashqariga chiqdi. Yo‘q. Yigit hamon torlari tarang tortilgan g‘ijjak kabi sassiz uni kuzatar, shu alfozda bir necha soat, bir necha kun tura olishini isbotlamochidek qilt etmasdi.

— Kechirasan, isming nima edi?
— Xudoybergan.

— Xo‘sh, Xudoybergan... Fotoapparatga qiziqasanni? O‘rgataymi?..

Shundan so‘ng hammasi o‘zgardi. Panor bobo saodati damlardan qolgan uzuz-yuluq xotiralarni har kech ongining sahnasiga tortib chiqar va ko‘rimsiz qayiqda Xudoybergan bilan bolaligining ovloq va xushvaqt qirg‘oqlarigacha suzib borar, so‘ng o‘smirlik va e‘timod ko‘rfazlari bo‘ylab yana o‘zi turgan keksalikning omonat bandargohiga qaytishardi, uning yigitdan ko‘ngli to‘q, boisi, hayrat va shavq sira so‘nmagan bu nigohlar allaqachon unga yuragi to‘riga ko‘mib qo‘ygan eng go‘zal xotiralarni taqdim etgandi...

YANGI G‘OYALARNING SERG‘AYRAT TARG‘IBOTCHISI

Xudoybergan uchun suratkashlik oson kechmagan. Qiyin sharoitda, muataassib dindorlar qarshiligiga bardosh berib ishlashga to‘g‘ri kelgan. Hatto kamerani shaytonning bir ko‘rinishi deb o‘ylagan mullalar guruhi bir kuni Nurmuhammad devonga agar o‘g‘lini vaqtda tiymasa, uyiga farishtalar kirmay qo‘yishini aytib vahima ko‘taradi. Ziyrak ota esa mening uyimda o‘nta xona bor, o‘g‘lim shulardan birida ishlaydi, farishtalar kirmasa, o‘sha xonaga kirmay qo‘ya qolsin, deb javob beradi.

Shu yillarda ma‘rifatdan yiroq boshqa bir xon emas, taxtni Muhammad Rahimxon II egallab turgani Xudoybergan faoliyati uchun kutilgan erkinlik taqdim etadi. Boisi, 1898-yili Peterburgda rus saltanatiga kelgan yangi imperator Nikolay II ga toj kiydirish marosimi bo‘lib o‘tganda mazkur tantanali yig‘inga

imkonini berdi. U nufuzli delegatsiya a‘zosi sifatida Rossiyaning markaziy shaharlariga borib, rus imperatori saroyida bo‘ldi, Moskva va Peterburgning diqqatga sazovor joylarini o‘z ko‘zi bilan ko‘rdi. Xivalik mehmonlar sharafiga uyushtirilgan qabul marosimi vaqtda esa kutilmagan hodisa ro‘y berdi. Birdan o‘rdagi devorga tutilgan oq matoga orqa tomondan tushgan nur oqimida odamlar va tulporlarning harakatlanayotgan suratlarini namoyon bo‘la boshladi. Mehmonlarning ayrimlari jazavaga tushsa, ba‘zilari hayratdan yoqa ushladi, Xudoybergan guvohi bo‘lgan manzara shu bilan uning tinchini batamom o‘g‘irladi. Safar muddati tugab, uyuq qaytish fursati kelganda Islomxo‘jaga bu yerda bir muddat qolib, ushbu ajoyib kashfiyotni o‘rganish va Xivaga ham olib borish niyati borligini ma‘lum qiladi. Islomxo‘ja ham bu yangilikni ma‘qullab, rozi bo‘ladi. Xudoybergan 1908-yilda yurtga qaytdi. U o‘zi bilan Fransiyada ishlab chiqilgan “Pate” kinoapparatini, teleskop, grammofon, fotoapparat, suratlar tushiriladigan qog‘ozlar hamda kinotasmalar olib keladi. Qisqa vaqt ichida el orasida Peterburgdan bir apparat olib kelinganmish, agar odamlarni suratga olib apparatiga qo‘ysa, devorda yurib ketaverarmish degan mish-mishlar tarqaladi.

XIX asming birinchi yarmida Xiva O‘rta Osiyoning eng mafunkor shaharlaridan biriga aylangan ediki, barpo qilingan mahobatli inshootlar, qal‘alar, shahar markazidagi Juma masjidi, bundan tashqari, Sherg‘ozixon, Qutlug‘ Murod Inoq, Olloqulixon va Muhammad Aminxon madrasalari, Pahlavon Mahmud

va xotirjamlikni esa kunlab kutilgan zarur daqiqalar ichida muhrlashga erishgan. Shuningdek, Xiva dilrabolari suratlarini olishda milliy liboslar va taqinchoglar yaqqol ko‘rinishi uchun alohida yondashgan. Boshqa turli kasb egalarni tasvirlashda suratlash ularni nisbatan yaqindan suratga olib, ish jarayonida aks ettirishga alohida e‘tibor qaratgan.

1920-yili Xiva xonligi tugatilib, Xorazm xalq sovet respublikasi tuzilgach, Xudoybergan Devonov yangi davlatning moliya vaziri etib tayinlanadi. Kasbiga oid vazifalarni bajarish chog‘ida u juda ko‘p marta Moskvaga safar qiladi. “Sovkino” jamiyatining hududiy muxbiriga aylanadi. Uning kinolavhalari “Soyuzkinojurnal” seriyalarida namoyish etiladi. “Ishchi ayollar”, “Sho‘rko‘l”, “Ko‘za”, “Chig‘ir”, “Tuzkon”, “Degish ofati”, “Xorazm dalalarida”, “Paxta karvoni” singari hujjatli film va syujetlarni suratga oladi. Uning mehnati natijasi o‘laroq, dunyo xalqlari ko‘pmillati Xorazmning qadimiyy, o‘ziga xos madaniyati bilan tanishadi.

Xudoybergan Devonovning jiyani Abdulla Yusupov tog‘asining ijodiy merosini to‘plash va o‘rganish jarayonida bundan bir necha yil ilgari Krasnogorsk shahridagi Markaziy davlat kino-fotomateriallar arxivida ishlab, Xorazm hayotiga oid, xususan, Devonovning muallifligi taxmin qilingan kinolavhalarini qunt bilan o‘rgangan. U mazkur arxivda 1936-yilda suratga olingan “Moskva — Qoraqum — Moskva” hujjatli filmi ko‘rgan. Bu filmda Moskvadan Qoraqum orqali Xorazmga yetib kelgan bir ekspeditsiya tarixi tasvir etilgan bo‘lib, unda,

aksilinqilobiy, millatchilik, qo‘zg‘olonchilik, terrorchilik va diversiya-zararkunandachilik tashkiloti bilan aloqa o‘rnatgan va shu tashkilot rahbari Fayzulla Xo‘jayevning topshirig‘i bilan O‘zbekiston bo‘ylab tumanma-tuman kezib, ingliz razvedkasi uchun josuslik ma‘lumotlarini to‘plagan degan o‘ta bema‘ni ayblarning birortasini Xudoybergan tan olmaydi. Shunga qaramay, sud uni o‘limga mahkum etadi, unga tegishli bo‘lgan jamiki mol-mulk esa musodara qilinishini aytadi. Hukum o‘sha kunioyq yarim kechada, Toshkentning Yunusobod tumanidagi qatlgohda ijro etiladi...

Ko‘rayotganim aloq-chaloq tushmide yoki tasavvurlarimning terskay taraffarida bir zum adashdimmi — bilolmay qoldim. Muhimi, ularni ko‘rdim. Xudoyberganni, umuman, oydinlarimizni o‘tgan, surgun qilgan, o‘ldirganlarni. Ular uch kishi edi — barvasta, dimoqlaridan tamaki va murdaning irsi aralashib kelar, qahqaha o‘tganida qoramtir baqbaqalari silkinib ketardi. Terakzor oralab oldinroqqa o‘tib, nihoyat ularning yuziga yaqindan razm soldim — tavba, xuddi bir bichimdan chiqqandek ko‘kazak aftlari bir-birinikiga chaplanib ketgan, uchalsai ham qoshsiz, og‘izsiz, baliqdag chaqchaygan ko‘zlar o‘ynoqlab, atrofdagi barcha jarayonlardan voqif bo‘lishga intilar, salqi qovoqlari igna tiqib havosi so‘rilgan koptokdag osilib qolgan, bunday turqlarga uzoqroq tikilgan odamning aqlidan ozishi hech gap emasdi.

Ularimg sap-sariq ko‘zlarida umrlari kabi nafrat yonib turar, hech narsadan ajalanmay qo‘ygan qorachiqdarida biror ifoda aks etmas, go‘yo odam tuproqdan emas, faqat g‘azab va nafratdan bunyod bo‘lgandek, vujudlaridan alamzadalik bilan birga johillik ufurib turar, nigohlarida odamiylik mehrobi shamlari o‘chgan, bularning hammasi ularga nisbatan xayrixoh kayfiyat emas, aksincha, qo‘rquv va ijirg‘anish hissini uyg‘otardi. Zahir yuzlarida e‘tiqod, sadoqat, ezgulik degan odam bir umr sig‘insa arzigulik tuyg‘ularga qarama-qarshi buzg‘unchilik, qabohat, jirkanchlik zohir edi.

Ular shahar o‘tmishiga neki daxldor bo‘lsa, hammasini yoqar, vayron qilar, buzar, o‘rniga baddin niyatlarining moddiy ko‘rinishi — ulkan qafasga o‘xshash rangsiz binolar qurardi. Keyingi ikki-uch oyda shahar havosi ham buzildi. Kuyuk tananimg achimsiq isi o‘rindiqdarga, daraxtlarga o‘tirib qolgan, qabriston va shilta hidiga qo‘shilib zo‘riqib, o‘qchitar darajada holdan toydirardi.

Hayratlanarli tarafi, tirik jonni quturgan itdek quvlagan ushbu sharpalarni allanechuk ta‘qib tuyg‘usi bezovta qilar, xuddi birov ularni kuzatib turgandek, o‘tingan joylaridan sakrab turib ketar va tezda xiyobonni tarq etib, bir oz vaqtdan so‘ng yana yig‘ilishardi.

Ular o‘zlaridan qochardi — aftidan, iblis nimitlab tashlagan pora-pora tanasini, panglangan nondek umulanib, uqalanib tushayotgan jasadini tashqaridan ko‘rishga o‘zlarining-da qurum bosgan yuragi dov bermasdi. Beshafqat sellar hayot qoyasidagi ulkan novvot bo‘laklari — toshlarni surib ketsa-da, tarix yomg‘irlari ham o‘chira olmagan haqiqatga tik qarashdan o‘lgudek qo‘rqishardi. Shu topda ular menga nihoyatda mayda, qiyofasiz ko‘rinardi. Ha, qiyofasiz edi ular, suratga olib bo‘lmas darajada qiyofasiz...

Qatag‘on millatimiz oydinlari boshiga dahshatli sinovlar solgan, beaybligini bila turib, tarixning asov po‘rtanalariga muborak jasadlarini ulotqirgan bo‘lsa-da, ularning ulug‘vor ruhini, bugun munosib avlodlar qonida qo‘shilib oqayotgan qadr-qimmat, sinmas e‘tiqodi, bo‘ysunmas hurligini yo‘q qila olmadi, bunga yuruvchi murdalarning fahmi ham, shaytoniy qudrati ham yetmadi.

Xudoybergan Devonov sho‘rolar davrida yo‘q qilib yuborilgan millionlab jabrdiydalar karvonidagi sarbonlardan biri edi. Bugun uning o‘rniga o‘nlab, minglab, millionlab yoshlar men Xudoybergan Devonovman deb otilib chiqishdan to‘xtamasa, haq va najot yo‘lini ko‘rsatishga mustahiq etilgan, xiyonat va jaholat zulmati g‘arq qilgan zamanga tiriklik va yashnash urug‘larini qadagan ajdodlarimiz ulgurmay qolgan egzu ishlarni ulardan-da a‘lo darajada bajarish uchun o‘ktam va serg‘ayrat yoshlar bepisandilik bog‘ig‘ida qolib ketganlarga o‘rnak bo‘lsa, ularni o‘rganish, yod etish, hulyo oftoibi kabi munavvar ijodini tahliil qilish yo‘li bilan poklanib, barkamollashib borsa, borsak, shu ularning mangum hilpirovchi tug‘ kabi xotirasiga haqiqiy hurmatimiz belgisi bo‘ladi.

Azizbek YUSUPOV,
“Yangi O‘zbekiston” muxbiri



maqbarasi va Toshhovli saroyidan tashkil topgan bu hadsiz osmon ostidagi bahaybat muzey-shahar o‘sha davrlardan boshlaboq sayyohlar, fotograflar va boshqa ziyoli qatlam vakillarini o‘ziga rom etib keldi. Shu muhtasham me‘moriy ansamblar asrdan beri mahalliy aholidan fotograflar va kinooperatorlari yetishib chiqishini intiq kutayotgan, Xudoybergan Devonov esa o‘z zimmasiga tushgan ushbu mas‘uliyatni ilk ijodiy qadamlaridan boshlab bajarishga astoydil kirishgandi. Yigirmanchi

Abdulla Yusupovning aytishicha, Xudoybergan Devonov tomonidan suratga olingan kadrlar ham bo‘lgan. Bundan anglashiladiki, dastlab oddiy bir havaskorning ishqibozligi bo‘lgan apparat o‘zgarayotgan dunyoda yangi g‘oyalar serg‘ayrat targ‘ibotchisining katta ish quroliga aylangan.

37-YIL...

La‘nati 37-yil. Ufunatga g‘arq idrokini nabs va vahm botqog‘iga cho‘ktirgan 37-yil... Afuski, rangsiz aft-angorida telbalik va jazava to‘nib qolgan 37-yilning chirkın nafasi qariyb har bir xonadonga sizib kirdi. 30-iyun kuni yarim kechada NKVD xodimlari Xudoybergan Devonov yashagan 18-uyga bostirib keladi. Beayb Devonovning o‘zi hibsga olinib, uyidagi tintuv jarayonida topilgan 90 varaqdan iborat yozishmasi, 230 dona fotosurati va boshqa narsalari olib ketiladi.

1937-yil 1-dekabrda tuzilgan qarorda aytilishicha, Xudoybergan Devonov 1934-yildan boshlab aksilinqilobchi tashkilot rahbarlari Fayzulla Xo‘jayev va Davlat Rizayevning topshirig‘i asosida Angliya razvedkasi foydasiga josuslik ishlarini faol olib borganlikda hamda shu tashkilot topshirig‘i bilan Xorazmda boshmchilik harakatini tashkil qilganlikda va ingliz josusi, boshmchilik tashkilotchisi Junaixdon bilan shaxsan aloqada bo‘lganlikda ayblangan edi. Bu qip-qizil bo‘htondan iborat qarorning sovuq maqsadini juda yaxshi anglagan Xudoybergan shonli umrining shami qassdan o‘chirilayotganidan xo‘rsinadi, qonsiragan qotillarning yo‘lini esa hech kim to‘solmaydi.

Oradan 11 oy o‘tgach, Toshkentda, 1938-yil 5-sentabrda 37-yil qurbonlari ustidan sud boshlanadi. Bir odamning umriga nuqta qo‘yishni davm deb bilgan sud bo‘ro-yo‘g‘i 15-20 daqiqa etamod etadi, xolos. O‘z oldiga burjua davlatini barpo etish maqsadini qo‘ygan



yuborardi. Mana, hozir u qachonlardir boshidan kechirgan musibatlar asorati bo‘lib gazak olgan yaradek bir oz gezargan, uzun, ismsiz musiqani hech kimga eshittirmay chalayotgandek barmoqlari bilinar-bilimas tirab turibdi.


— Panor bobo, suratga oluvchi apparat shumi?

Penner uni kimdir zimdan kuzatayotganini allaqachon payqagan, umuman, fotoapparatni ko‘tarib yursa, deyarli hamma shunday qaragani uchun bu holatga o‘rganib qolgan, shu boisi, qo‘qqisdan berilgan savolga dovdiramadi, faromush holda mujmal javob berdi:

— Shu, rasimga oladigan shu...
— Yaqindan ko‘rsam bo‘ladimi?
Panor bobo yigitga yer ostidan bir qur

Mulohaza

Bir donishmanddan “Jamiyatni tutib turadigan asosiy ustun nima?” deb so‘ralganida, u uch narsani sanagan ekan. Bular: iqtisodiyot, mudofaa, ma’naviyat. Shunda undan “Agar uch ustundan faqat bittasini saqlab qolish zarurati tug‘ilsa, qaysi birini tanlash kerak?” deb so‘rabdi. Donishmand bunday javob beribdi: “Agar shunday bo‘lsa, ma’naviyat ustuni saqlab qolinishi lozim. Ma’naviyat ustuni mustahkam bo‘lsa, o‘z-o‘zidan iqtisodiyot tiklanadi, vatanparvar insonlar o‘z yurtini mudofaa ham qila oladi!”.



MA’NAVİY BARKAMOLLIK

“HALOLLIK VAKSINASI” DEMAK

Nihoyatda ulug‘ gaplar! Yo‘q, balandparvoz gap deyishga shoshilmang. Shunchaki, oiladagi ma’naviy muhitni olib qarang: janjal-suron yoki buzuqlik hukmron, halollik yo‘q xonadonda baraka bo‘ladimi? Yoki bu oila sha’nini himoya qilish kimgadir qiziqmi?

Endi xuddi shu ma’naviy muhitga kattaroq oila — jamiyat misolida qarang ko‘ring: ma’naviy sog‘lom muhitda fayzu baraka bo‘ladi. Chunki ijtimoiy-ma’naviy barqarorlik vatan va shaxs manfaatlarini uyg‘unlashtiradi. Odamlar halol daromad haqida so‘zlaydi, uni qadrlaydi.

Asli korupsiya haqidagi fikrimni ma’naviyat masalasi dolzarbligini ta’kidlashdan boshlamoqchiman. Zero, korupsiyaning ildizi ma’naviy qashshoqlik va tubanlikdan, yurt manfaatini his qilmaslikdan oziqlanadi. Prezidentimiz ta’biri bilan aytganda, “halollik vaksinasi”ning emdorisni ham ma’naviyatdir. Ma’naviyat qadriyatlarga asoslanadi. Shu jihatdan ko‘pincha korupsiyaning o‘zagi oilaviy qadriyatlar ildiziga tutash bo‘ladi. Uzoqqa bormaylik: “Bolan, seni ishga joylash uchun tanish topishim kerak!” yoki “Falonchi o‘zimizdan, qo‘llaydi”, degan gaplarni farzandlarimiz oldida sira o‘ylanmay aytamiz. Oqibatda ular uchun tanish-bilish, qarindoshchilik yoki mahalliychilik orqali ishini bitirish odatiy holga, hatto qonuniyatga aylanadi.

Korupsiya shakllari qanchalik turli-tuman bo‘lmasin, ularni umumlashtiruvchi bitta ko‘rsatkich bor: shaxsiy manfaatning vatan manfaatidan ustun qo‘yilishi. Hatto qaysidir xizmat vakolati suiiste‘mol qilinishining arzimagan ko‘rinishi ham jamiyatga katta zarar keltirishi, taraqqiyotga to‘g‘onoq bo‘lishi mumkin. Masalan, bitta maktab direktorining



Shahlo AHROROVA, Ijtimoiy-ma’naviy tadqiqotlar instituti katta ilmiy xodimi, falsafa fanlari bo‘yicha falsafa doktori

yaxshi kadr qolib, moddiy manfaat yoki tanish-bilishchilik, mahalliychilik evaziga bilimi haminqadar o‘qituvchini ishga olishi qanchadan qancha o‘quvchining yetarli bilim olishiga to‘siq bo‘ladi. Oqibatda mehnat bozorida o‘mini topa olmayotgan kadrlar ko‘payadi. Aytgich, bunday o‘qituvchi, direktorning topgan maoshi halol bo‘lishi mumkinmi?

Bugun yangi avlodni toza fikrli va korupsiyaga bog‘liq xatti-harakatlarni hazm qilmaydigan darajada halol o‘stirish masalasi davlat va jamiyat taraqqiyotining o‘zak

poydevloridan. Zero, korupsiyadan xoli bo‘lmagan muhitda islohotlar ijobiy natija bermaydi. Bunday jamiyatga xalqaro maydonda ham ishonch kam bo‘ladi. Ayni paytda korupsiyaga to‘la barham berish imkonsiz ekani, lekin uni keskin kamaytirish orqali taraqqiyotga erishish mumkinligi rivojlangan mamlakatlar tajribasidan ma’lum.

Demak, korupsiyaga qarshi kurashish azaliy va abadiy mavzu. Davlat va jamiyat tizimining mustahkamligi masalasi. Buyuk jahongir ajdodlarimiz Amir Temur va Zahiriddin Muhammad Boburning davlat mustahkamligidagi muvaffaqiyat siri ana shu halollikda ekanini ularning o‘zi e’tirof etgan. Xususan, Bobur “Boburnoma” asarida bobosi Amir Temurning adolat tamoyillariga amal qilgan holda o‘zi mahv etgan yurtlarda askarlarning aholi mol-mulkini talon-taroj qilishiga yo‘l qo‘ymagani, bunday nopoklikni qilgan kimsa og‘ir jazoga tortilgani to‘g‘risida yozgan. Amir Temur o‘z davlatida mansabdor shaxslar sifatleri, burch va vazifalarini adolat tamoyili ostida qat’iy belgilab bergan.

Mutaxassislar korupsiya yuzaga kelishi va ildiz otishining bir qancha sababini ko‘rsatadi. Aholining davlatni nazorat qilishiga oid tizim zaifligi, davlat sektorida xizmat qilayotgan

va muayyan vakolatga ega xizmatchilar daromadining xususiy sektorda topish mumkin bo‘lgan mablag‘dan yoki hayotiy ehtiyojlarini ta’minlaydigan xarajat me’yoridan kamligi, iqtisodiyotning bevosita davlat hukmronligida markazlashtirilishi va tartibga solinishi, inflyatsiya darajasining ortib borishi, davlat boshqaruvi organlari va aholi o‘rtasida uzilish yuzaga kelgani kabilar obyektiv sabablardir. Bu sabablarning ildizini qirishda davlat boshqaruvi va ijtimoiy siyosati muhim o‘ringa ega.

Yurtimizda korupsiyaning oldini olish yo‘nalishida qator qonunlar qabul qilinib, o‘ziga xos tizim yaratildi. Ayniqsa, jamoatchilik nazoratini kuchaytirishga zamin yaratildi. Korupsion holatlar jamoatchilikning faol muhokama obyektiga aylandi. Davlat buyurtma va xaridlarini amalga oshirishda sog‘lom raqobatga asoslangan raqamlashgan shaffof tanlov va tenderlar tizimi yo‘lga qo‘yildi. Natijada o‘tgan yili 14 trillion so‘m tejalgan. Ijtimoiy sohada elektron tizim yo‘lga qo‘yilgani, davlat xizmatchilari ish haqining me’yoriy tartiblanayotgani, ijtimoiy himoya tizimi kuchaytirilgani va inson manfaatlari yo‘lidagi byurokratik to‘siqlarni kamaytirish borasidagi ishlarning jadal davom etayotgani ijobiy natija bera boshladi. Bu kabi to‘siqlarning

kamayishi iqtisodiyot sohasida xalqaro ishonchning ortishiga xizmat qildi. So‘nggi yetti yilda mamlakatimizga juda katta miqdorda investitsiya kiritildi.

Korupsion jinoyatlarning ildizi ko‘pincha shaxsning ichki dunyosi va qadriyatlari bilan bog‘liq ekanini unutmashlik lozim. Korupsiyadan xoli muhit shakllanishida jamiyatning ma’naviy hayoti va unga ta’sir ko‘rsatuvchi unsurlar muhim o‘rin tutadi. Hech bir insonning ma’naviy-axloqiy olami qumga tushgan suvdoy yo‘q bo‘lib ketmaydi. Jamiyatda izsiz yo‘qolmaydi. Har birimizning ma’naviy olamimizni shakllantiruvchi qadriyatlarimiz ijtimoiy-ma’naviy makon deb atalmish katta qozonga tushgan masalliqlardir. Har birimizning masallig‘imiz bu ulkan muhitda o‘z ta’mini qo‘shadi.

Demak, masalliqlarimiz, ya’ni shaxsiy ma’naviy-axloqiy qadriyatlar ijtimoiylashib, jamiyatda o‘ziga xos ma’naviy muhitni yuzaga keltiradi. Kishilarning ma’naviy qiyofasi ularning xatti-harakati, jamiyat va yurtga munosabati, shaxsiy va umumiy manfaatlarni uyg‘unlashtira olishida namoyon bo‘ladi. Har bir insonning ichki dunyosi ijtimoiy, jumladan, korupsiyaga munosabatida ham muhim asos vazifasini bajaredi.

Uzoqqa bormaylik, deylik, ish yuzasidan bank xodimi bilan muloqotga kirishdingiz. Bank xodimi sizning qaysidir yumushingizga ko‘maklashish jarayonida nafaqat xizmat vazifasini o‘taydi, balki ijtimoiy farovonlikka muayyan ma’noda ulush qo‘shadi. Biroq u siz bilan ijtimoiy munosabatga kirishish chog‘ida shaxsiy moddiy manfaatni ko‘zlasa, aytaylik, pora talab qilsa-chi? Bunday holatda, birinchidan, u mijozda bank faoliyatining xolis va insonparvarligiga ishonchni susaytiradi. Ikkinchidan, bir subyekt sifatida jamiyatga hurmatni pasaytiradi. Uchinchidan, adolat yo‘q yoki mustahkam emas, degan tushunchani shakllantiradi. Shunday sabablar bilan ijtimoiy-ma’naviy muhitga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bu ta’sir korupsion muhitning yanada kuchayishiga olib keladi.

Ma’naviy asos balandparvoz so‘z emas. Oilada va jamiyatdagi korupsiyaga moyillik orqali nosog‘lom muhit yuzaga kelishi aynan shu asos bilan bog‘liq. Sog‘lomligu nosog‘lomlik zamirida yana bir muhim ijtimoiy faktor bor: bu — tarbiya masalasi. Prezidentimiz ta’kidlaganidek, yoshlarni korupsiyaga toqatsiz va vatanparvar qilib tarbiyalash masalasi.

Abdulla Avloniy bobomizning so‘zlari bilan aytganda, tarbiyaning yo hayot, yo mamot ekani, ya’ni yurtning kelajagini belgilab berish o‘zgarmas aksiomadir. Yoki Abdurauf Fitrat e’tirof etganidek, xalqning baxtli bo‘lib, izzat-hurmat topishi, rivojlanishi ham yoki tobe va qul bo‘lib xorlanishi ham insonning yoshligida olgan tarbiyasiga bog‘liq.

Demak, yoshlarni korupsiyaga toqatsiz va vatanparvar etib tarbiyalashda ta’lim tizimining o‘mini kuchaytirish o‘rinli masala. Ularning siyosiy va huquqiy ongini yuksaltirish jamiyatda demokratik tamoyillarning faol asosga aylanishi bilan birga korupsion harakatlarning ildizini kesishda muhim omil bo‘lib xizmat qiladi.

Qolaversa, korupsiyaning oldini olishda Singapur, Shvetsiya va Portugaliya tajribasi katta ahamiyatga ega. Bu borada uning obyektiv va subyektiv omillarini chuqur o‘rganish, milliy va mahalliy sabablarini tahlil qilish zarur. Shu asosda samarali chora-tadbirlar belgilash asosiy vazifalardan. Ana shunday milliy o‘zak sifatida yurtimizga xos jamoaviylik qadriyatining azaliy amal qilinishi keltirish mumkin. Ya’ni bizda hech kim o‘zini jamoadan, eldan tashqarida ko‘rmaydi. Xalq fikri, unga munosabati hayotiy omillardan. Shu bois, jamoaviy izza qilish yo‘li bilan jazolash kuchi mintoqamizda ancha yuqori. Masalan, o‘zim bu borada bir voqeaning guvohi bo‘lganman. Kichikroq huquqbuzarlik sodir etgan fugaroning ishi ochiq sudda ko‘rilishi rejalashtirildi. Sud ko‘chma tarzda mahallada o‘tkazilishi kerak edi. Tashkilotchilar sudlanuvchi o‘z mahallasida sudlanishdan or qilayotgani, hatto qattiqroq jazo belgilanishiga ham roziligi, faqat mahalla ahli ichida izza qilmaslikni so‘ragan. Ha, u mahalladoshlari oldida izza bo‘lgandan ko‘ra o‘g‘irroq jazo olishni afzal ko‘rgan. Demak, milliy mentalitetdan kelib chiqsak, mahalla tarbiyasi va jamoatchilik nazorati korupsiyaning oldini olishda muhim o‘rin tutishini unutmashlik lozim.

Barchamiz jamiyatning bir bo‘lagi sifatida mavjud ma’naviy muhitdan ta’sirlanamiz. Ayni paytda o‘sha muhitni shakllantiradigan ham o‘zimiz. Shu bois, korupsiyaning har qanday shakliga toqatsiz, unga zamin yaratishga to‘siq bo‘lishimiz shart.

Toshoyna

Avtobusda berilib kitob o‘qib ketayotgan ekanman. Qo‘qqisdan tepamda o‘rta yoshlardagi ikki erkak paydo bo‘ldi. Biri qo‘lida qanaqadir chiroq tutib olgandi. U: — Jamoat joyida nima qilyapsiz? Darhol biz bilan yuring. — deb qo‘ltig‘imdan tutdi. — Nima gap, tinchlikmi? — Borganda bilasiz, gapni ko‘paytirmang, — dedi ikkinchisi. — Qayoqqa, nimalar bo‘lyapti o‘zi? Tushuntirib bering. — Nega telefonon foydalanmayapsiz, kitob o‘qiganingiz nimasi? Qarang, hamma telefon titiyapti, siz esa... kap-katta odam uyalmaysizmi?

Aтроfinga boqsam, avtobus salonidagi yo‘lovchining hammasi, kimdir o‘tirib, kimdir tik turib qo‘lidagi telefonon ko‘z uzmay ketyapti. Har qancha qarshilik ko‘rsatmay, meni sudrab, qandaydir baland binoga olib kirib ketishdi. Liftda 45- yoki 50-qavatga ko‘tarildik, chamamda. Bir xonaga kiritib, o‘rtadagi kursiga o‘tqazishdi. Boyagi ikkovi qarshimda joylashdi. Chiroq ko‘targani yaqinroq kelib, ko‘zimga tikildi.

— Oxirgi paytda sizdaqalar ko‘payib ketdi. Nega telefon ishlamaysiz, kitob o‘qishga bala bormi? Axir butun dunyo telefonga muk tushganda nega siz hammadan ajralib turishingiz kerak?

Uning gaplaridan lol bo‘lib, angrayib turaverdim. Aniqtrog‘i, hech nimani tushunmayotgandim. Ikkinchisi davom etdi:



TELEFONI YO‘Q ODAM

yoxud raqamlashtirishdan yiroq FELYETON

— Bu odam — oramizdagi dushman. U na mamlakat iqtisodiyotini, na tibbiyotini o‘ylaydi. Tintuv o‘tkazib, qo‘lidagi kitobiga qo‘shib, uyidagilarini ham musodara qilish kerak. O‘zini telefon va noutbuklar omborida jazo o‘tashga jo‘natish lozim.

— O‘lay agar, tushuntirib gapiringlar. Nima gunoh qildim o‘zi? Nima yomonligim tegdi sizlarga?

— O‘zingizni go‘llikka solmang. Kuppakunduz kuni qo‘lda chiroq tutib, ko‘cha kezish, XXI asrda ham sizga o‘xshab zamonaviy uyal aloqa vositasidan foydalanmaydiganlarni

qidirib yurish bizga ham havas emas. Kulmang, buning nimasi kulgili? Qaysi vijdon bilan telefon tutmaysiz?

Istehzoli kulib o‘tiringaninni shunda bilibman. Bular hazillashyaptimi?

— Qanaqa vijdon? Telefon tutmasligimga vijdonning nima aloqasi bor?

— Judayam bor-da. Siz va sizga o‘xshaganlar telefon tutmaydi. Demak, telefon sotib olmaydi. Natijada mamlakat iqtisodiyotiga tushum tushmaydi. Monitorga tikilib, ko‘z nuringizni to‘kmaysiz. Miyangiz

to‘qimalari zararlanmaydi. Eshitish organlaringiz ham me’yorida ishlamaydi. Uzoq muddatli suhbatga kirishmaganingiz uchun quloq, quloq pardasi, yon to‘qimalar va miyaning qo‘shni sohalarida harorat oshishi kuzatilmaydi.

Gapni sherigi ilib ketdi:

— Har xil bo‘lmag‘ur xabarlar o‘qib, qon bosimingiz oshmaydi. Natijada oradan 15-20 yil o‘tsa ham kasal bo‘lmay, soppa-sog‘ yashayverasiz. Ya’ni shifokorga bormaysiz. Holbuki, uning ham bola-chaqasi bor,

bemorlar to‘lagan pul bilan oilasini boqishi kerak. Demak, siz tibbiyotning, umuman, jarayonning oqshashiga xizmat qilyapsiz. Boz ustiga, pensiyaga chiqib, uzoq umr ko‘rasiz. Davlat sizga shu vaqt davomida nafaqa to‘lashi kerak. Nima, g‘aznaning tubi yo‘qmi? Narigisi davom etdi:

— Telefoningiz yo‘q, demak, siz yurgan yo‘lingizda, ko‘cha-ko‘yda qo‘shiq tinglamaysiz, qisqa lavhalar tomosha qilmaysiz, turli o‘yinlar o‘ynamaysiz. Natijada gigabaytu megabaytlar ishlamaysi. Aloqa kompaniyalari esa bundan zarar ko‘raveradi. Demak, siz madaniy saviyasi past odamsiz, jamiyat hayotidan uzilib qolganisiz, raqamli texnologiyalar rivojiga, tarmoqning daromad topishiga hissa qo‘shgingiz kelmaydi. Bularning hammasidan ixtiyoriy bo‘yin tovlaysiz. Sezyapsizmi, sizga qo‘yilayotgan ayblovlar o‘ta jiddiy!

— Bas qiling, boshim og‘rib ketdi, — dedim nimanidir sal tushungandek bo‘lib.

— Og‘riydi-da. Axir miyangiz bo‘lmag‘ur narsalar bilan chalg‘imsa, oldi-qochdi vayn va rolıklar diydangizni qotirmagan bo‘lsa, sizning boshingiz og‘rimay, bizniki og‘risinni? Hoynahoy, qarindoshlaringizdan ham tez-tez xabar olib tursangiz kerak-a! Xasta odamdand hol so‘rash, yaqinlarni yaxshi kunlarda yo‘qlab qo‘yish kabilarni ham oflayn bajarasiz. Vaholanki, hozir davr shiddati bu ishini telefon orqali onlayn bajarish mumkinligini eng qulay yo‘l sifatida namoyon qilgan. Telefoningiz bo‘lganida edi, bitta sms yozib yoki ovozi xabar yuborardingiz. Bundan iqtisod qilgan vaqtigingizni esa maza qilib yolg‘on-yashiq gaplarni mish-mishlar, turli-tuman ur-sur xabarlarini ko‘rishga sarflagan bo‘lardingiz.

Ikkinchisi salkam jazavaga tushib davom ettirdi:

— Siz chamasi ko‘p kitob o‘qib, olimlar uzoq vaqt o‘tkazgan tadqiqotlardan xabar topganisiz. Mobil telefonon taraladigan elektr magnit nurlanishi butun tanaga ta’sir qilishi, ayniqsa, ba’zi sabablarga ko‘ra, immuniteti zaif odamlar va bolalarga zararli ekanini bilib qolganisiz. Yana dunyoda har 16 insondan bittasi mobil aloqa nurlanishi qurboniga aylanayotganini ham o‘qiganisiz. Jahon sog‘liqni saqlash tashkiloti uyali telefonlar zarariga oid hisobotida insonlarning saraton kasaliga chalinishida mobil telefonlar ta’siri kuchli ekanini ta’kidlagan edi. Indamasa, bu xabarlarini boshqalarga ulashishga ham tayyorsiz. Shuning uchun telefoningiz yo‘q. Lekin bilib qo‘ying. Biz bunga shundoq qarab tura olmaymiz.

— Sizlar kimsizlar? — Biz kunduzi chiroq yoqib bo‘lsa ham siz kabilarni aniqlaydigan ma’naviy tahdid shirkati vakillarimiz. Maqsadimiz — sizga o‘xshaganlarni o‘z safimizga qo‘shib olish. Aks holda, hoziroq jazo o‘tash uchun raqamli texnologiyalar omboriga ravona bo‘lasiz.

Ikkoviyam o‘midan turib, vajahat bilan ustimga bostirib kela boshladi...

Seskanib, ko‘zimni ochsam, qora terga botibman... Hartugul, bularning hammasi tushim bo‘lib chiqdi. Darhol qo‘limni yostig‘im ostiga cho‘zdim, telefonimni olib, soatiga qarasam, allaqachon UYG‘ONISH VAQTI bo‘libdi. Tong otmogda ekan.

Nodir MAHMUDOV, “Yangi O‘zbekiston” muxbiri